

«O‘zbekiston temir yo‘llari» DATK
Toshkent temir yo‘l muhandislari instituti

«Nashrga ruxsat beraman»
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
dotsent _____M.X. Rasulov.

A.M.Karimov

Oliy matematikadan ma’ruza matni

barcha bakalavriyat ta’lim yo‘nalishlarida tahsil oluvchi

talabalar uchun

Toshkent – 2012

**“OLIIY MATEMATIKA” FANIDAN
MA’RUZA, AMALIY VA
SEMINAR MASHG’ULOTLARIDA
O’QITISH TEXNOLOGIYASI**

Toshkent – 2012

1 mavzu

**Determinantlar va ularning xossalari. CHiziqli tenglamalar sistemasini
echish uchun Kramer formulasi**

- **«Determinantlar va ularning xossalari.**
- **« CHizikli tenglamalar sistemasini echish
uchun Kramer formulasi .**


1.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi.

Vaqt - 2 soat	Talabalar soni: 30 - 60 nafar.
O'quv mashg'ulotining shakli	Vizual ma'ruza
Ma'ruza mashg'ulotining rejasi	1. Algebra va uning rivojlanish tarixidan. 2. 2,3-tartibli determinantlar. 3. Determinantlarning xossalari. 4. Minor va algebraik to'ldiruvchilar. 5. n - tartibli determinantlar
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Algebra, algoritm, 2, 3 va n -tartibli determinantlar, bosh diagonal, yordamchi diagonal, minor, algebraik to'ldiruvchi, uchburchaklar qoidasi, diagonal qoidasi, determinantlarning xossalari, determinantni biror satri (ustuni) elementlari bo'yicha yoyish.	
Pedagogik vazifalar	O'quv faoliyatining natijalari
-Algebra, algoritm, -2, 3 va n -tartibli determinantlar, -bosh diagonal, yordamchi diagonal, -minor, algebraik to'ldiruvchi, -uchburchaklar qoidasi, diagonal qoidasi, -determinantlarning xossalari, -determinantni biror satri (ustuni) elementlari bo'yicha yoyish.	Talabalar berilgan savollarga javob beradilar mavzuni tushinib oladilar
O'qitish uslubi va texnikasi	Ma'ruza, muammoli holatlarni echish, aqliy xujum, klaster
O'qitish vositalari	Proektor, tarqatma materiallar
O'qitish shakli	Individual, frontal, juftlikda ishlash
O'qitish sharoitlari	Proektor va kompyuter bilan taaminlangan auditoriya


1.2. Ma'ruza mashg'ulotining texnologik kartasi.

Bosqichlar vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu maqsad va rejalashtirilgan o'quv natijalarini e'lon qiladi. 1.2. Rejani ekranga chiqaradi.	1.1. Eshitadilar, yozib oladilar. 1.2. E'tibor beradilar.
2-bosqich. Bilimlarni faollashtirish. (10 min.)	2.1. Asosiy tushunchalarni namoyish qiladi. 2.2. O'quv faoliyatini baholash mezonlarini ma'lum qiladi.	2.1. Aniqlik kiritadilar, savollar beradilar.
3-bosqich. Asosiy (55 min.)	3.1. Quyidagi savol bilan murojat qiladi. Anik fanlar tizimiga qaysi fanlar kiradi? 3.2. Fanning ob'ekti va predmeti nazariyasidan kelib chiqib oliy matematika fanining ob'ekti va predmeti bilan tanishtiradi. 3.3. 2, 3 va n -tartibli determinantlar, determinantlarning xossalari, 3.4. bosh diagonal, yordamchi diagonal 3.5. minor, algebraik to'ldiruvchi, uchbur chaklar qoidasi, diagonal qoidasi 3.6. determinantni biror satri (ustuni) elementlari bo'yicha yoyish.	3.1. Anik fanlar tizimiga kiruvchi fanlarni sanaydilar. 3.2. YOzib oladilar. 3.3. Tushunchlarni mohiyatini anglaydilar. 3.4. fanning metodologik asosini anglaydi. 3.5. YOzib oladilar.
4-bosqich. YAkuniy (10 min.)	4.1. Mavzuga xulosa yasaydi. O'quv jarayonida faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. 4.2. Musatqil ishlash va bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar beradi.	4.1. Eshitadilar. 4.2. Topshiriqlarni yozib oladilar.


Ilovalar



Matematikaning fanlar tizimidagi o'рни




Oliy matematika fanini o'qitish



tizimi

1. Texnologiya – biror ishda maxoratda, jarayonda qo'llaniladigan yo'llar, usullar majmuasi.
2. Pedagogik texnologiya – pedagogik va texnologik yondashuvlar integrasiyasidir.
3. Pedagogik loyixalash – yaratilgan modelni dastlabki va yakuniy ko'rinishda ishlab chiqish va uni amaliy qo'llash darajasiga etkazishdan iborat.
4. Pedagogik tizim – bir biri bilan o'zaro bog'langan muaayyan munosabatda bo'lgan elementlar bilan tasvirlangan yaxlit ta'lim tizimidir.
5. Pedagogik innovasiya – pedagogik jarayonga yangilik kiritish.
6. Pedagogik jarayon – o'qituvchi va o'quvchi orasidagi taolimiy va tarbiyaviy munisabatlar tizimi.



Bilimni buyuk, uquvni
ulug' bil,
Bu ikkisi insoni
ulug'laydi. Zakovat
qaerda bo'lsa, ulug'lik
bo'ladi,
Bilim kimda bo'lsa
buyuklik bo'ladi.
YUsuf Xos Xojib

Matematika so'zi yunoncha - fan bilim so'zidan xosil bo'lgan. Matematikaning fan sifatida shakllanishini eramizdan avvalgi VI - V asrlarga taaluqli deyish mumkin, bu davrga kadar esa boshlangich ma'lumotlar to'planib bora bergan. SHu to'plangan materiallar asosida arifmetika va geometriya fanlari yuzaga kelgan.

1. Algebra matematikaning bir qismi va u turli miqdorlar ustida amallarni hamda shu amallar bilan bog'liq tenglamalarni echishni o'rganadi. Kengroq ma'noda algebrada ixtiyoriy tabiatli to'planning elementlari ustida sonlarni qo'shish va ko'paytirish kabi odatdagi amallarni umumlashtiruvchi amallarni o'rganuvchi fan tushuniladi.

Uch og'aynining yoshlari 30, 20, 6 da. Necha yildan keyin eng kattasining yoshi ikkala ukasi yoshining yig'indisiga teng bo'ladi. $30 + x = (20 + x) + (6 + x)$, $x = 4$. Bunday tenglamalar eramizdan avval 2 minginchi yillarda qadimgi Misrda ma'lum edi. Lekin ular harflardan foydalanmagan. Eramizdan avvalgi 2 minginchi yil boshida qadimgi bobilliklar yanada murakkabroq masalalarni echishgan.

2. III asrda yashagan Iskandariyalik olim Diofant geometrik bayonni rad etib harfiy ifodalardan foydalanadi. Unda manfiy ko'rsatkichli darajalar, manfiy sonlar, musbat va manfiy sonlarni ko'paytirish qoidalarini yozish uchun qisqacha belgilar bor edi.

Algebraning keyingi rivojiga Diofant o'rgangan algebraik tenglamalar kuchli ta'sir ko'rsatgan.

VI asrdan boshlab matematik tadqiqotlar markazi Hindiston, Xitoy, YAqin SHarq va O'rta Osiyo mamlakatlariga ko'chdi. Xitoylik olimlar chiziqli tenglamalar sistemasining echimini topishda noma'lumlarni ketma-ket yo'qotish usulini topishgandi. Ammo algebra, tenglamalarni echish masalalariga bog'liq muammolarni bayon etuvchi matematikaning maxsus tarmog'i sifatida YAqin SHarq va O'rta Osiyo olimlari ishlarida shakllandi. IX asrda o'zbek matematigi va astronomi Muhammad ibn Muso al Xorazmiy (783-850) «Al-jabr val muqobala» asarini yozdi. Bu asarda Xorazmiy chiziqli tenglamalarni echishning umumiy qoidasini berdi va kvadrat tenglamalarni sinflarga ajratib, har bir sinf uchun echish yo'llarini ko'rsatdi. Al-jabr (tiklash) so'zi tenglamadagi manfiy hadlarni uning ikkinchi qismiga ishorasini o'zgartirib o'tkazishni bildirgan. YAngi fan «**Algebra**»ning nomi o'sha «Al-jabr» so'zidan olingan.

3. 2, 3 - tartibli determinantlar. Determinantlarni hisoblashga keltiriladigan ushbu masalani qaraylik. Masala. A va B mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun 2 turdagi hom ashyodan foydalaniladi. Bitta A mahsulotni ishlab chiqarish uchun 5 birlik 1-tur va 4 birlik 2-tur hom ashyo sarflanadi, bitta B mahsulotni ishlab chiqarish uchun esa, 3 birlik 1-tur va 5 birlik 2-tur hom ashyo ishlatiladi. 1-tur xom ashyo 62 birlik, 2-tur xom ashyo 73 birlikda berilgan bo'lsa, eng katta foyda olinadigan ishlab chiqarishni rejalashtirish uchun hom ashyo sarfi modelini tuzing.

Bu masalaning matematik modelini tuzish maqsadida x_1 bilan ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan A mahsulot miqdorini, x_2 bilan esa ishlab chiqarilishi kerak bo'lgan B mahsulot miqdorini belgilaylik. Bu holda $5x_1$ A mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan 1-tur hom ashyo miqdorini, $3x_2$ esa B mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan 1-tur hom ashyo miqdorini ifodalaydi. $5x_1 + 3x_2$ A va B mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun sarflanadigan 1-tur hom ashyo jami sarfi miqdorini ifodalaydi, bu hom ashyo chegaralangan bo'lib, 62 birlikda mavjud, demak $5x_1 + 3x_2 = 62$ tenglama kelib chiqadi. Xuddi shunday qilib, 2-tur xom ashyo sarfi uchun $4x_1 + 5x_2 = 73$ tenglamani hosil qilish mumkin. SHunday qilib,

$$\begin{cases} 5x_1 + 3x_2 = 62, \\ 4x_1 + 5x_2 = 73 \end{cases}$$

ikki noma'lumli ikkita chiziqli tenglamalar sistemasini hosil qildik. Bu tenglamalar sistemasi berilgan A va B mahsulotlarni ishlab chiqarishda, hom ashyo sarfining matematik modelini ifodalaydi.

4. Ikki noma'lumli ikkita chiziqli tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 = b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 = b_2 \end{cases} \quad (1)$$

$a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21} \neq 0$ bo'lsa, (1) tenglamalar sistemasi yagona

$$x_1 = \frac{b_1a_{22} - b_2a_{12}}{a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}}, x_2 = \frac{b_2a_{11} - b_1a_{21}}{a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21}} \quad (2)$$

echimga ega bo'ladi. (2) formuladagi sur'at va mahrajdagi ifodalar 2- tartibli

determinant(aniklovchi)lar deyiladi. 2-tartibli determinantni $a_{11}a_{22} - a_{12}a_{21} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}$

bilan belgilanadi. $a_{11}, a_{12}, a_{21}, a_{22}$ larga determinantning elementlari deyiladi. SHunday qilib, (2) formulalarni determinantlar yordamida

$$x_1 = \frac{\begin{vmatrix} b_1 & a_{12} \\ b_2 & a_{22} \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}}, x_2 = \frac{\begin{vmatrix} a_{11} & b_1 \\ a_{21} & b_2 \end{vmatrix}}{\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} \\ a_{21} & a_{22} \end{vmatrix}} \quad (3)$$

ko'rinishda yozish mumkin.

$$\Delta = a_{11} \begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} \\ a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} + a_{21} \begin{vmatrix} a_{13} & a_{12} \\ a_{33} & a_{32} \end{vmatrix} + a_{31} \begin{vmatrix} a_{12} & a_{13} \\ a_{22} & a_{23} \end{vmatrix} \quad (4)$$

ifodaga 3- tartibli determinant deyiladi va $\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix}$ bilan belgilanadi.

a_{11}, a_{22}, a_{33} elementlar bosh diagonalni, a_{13}, a_{22}, a_{31}


yordamchi diagonalni ifodalaydi. (4) tenglikda 2- tartibli determinantlarni qiymatlari bilan almashtirsak

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = a_{11}a_{22}a_{33} + a_{21}a_{32}a_{13} + a_{31}a_{12}a_{23} - a_{13}a_{22}a_{31} - a_{12}a_{21}a_{33} - a_{11}a_{23}a_{32} \quad (5)$$

bo'ladi. (5) formulani esda saqlash uchun uchburchak qoidasidan foydalanish mumkin.

Determinantlarni hisoblashning uchburchak usuli

Elementlarni nuqtalar bilan belgilasak, ushbu sxema hosil bo'ladi :



(+) ishora bilan,

(-) ishora bilan olinadi.

Determinantlarning xossalari

1. Determinantning barcha satridagi elementlarini mos ustun elementlari bilan almashtirilsa uning qiymati o'zgarmaydi, ya'ni

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{21} & a_{31} \\ a_{12} & a_{22} & a_{32} \\ a_{13} & a_{23} & a_{33} \end{vmatrix}.$$

1-misol. $\begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 1 & 3 & -2 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix} = 24 - 6 - 0 - 0 + 4 - 0 = 22$

bo'lib, bu determinantda barcha satrlarini mos ustunlar bilan almashtirsak,

$$\begin{vmatrix} 2 & 1 & -3 \\ -1 & 3 & 0 \\ 0 & -2 & 4 \end{vmatrix} = 24 - 6 + 0 - 0 + 4 - 0 = 22$$

bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ikkala holda ham bir xil qiymat hosil bo'ldi, bu birinchi xossaning to'g'riligini ko'rsatadi.

2. Ikkita satrni o'zaro almashtirilsa determinant qiymatining ishorasi teskarisiga o'zgaradi; haqiqatan ham 1- misoldagi determinantda 1-satrini 3-satri bilan o'zaro almashtirsak,

$$\begin{vmatrix} -3 & 0 & 4 \\ 1 & 3 & -2 \\ 2 & -1 & 0 \end{vmatrix} = 0 + 0 - 4 - 24 - 0 + 6 = -28 + 6 = -22$$

bo'lib, bu 2-xossaning o'rinli ekanligini ko'rsatadi.

3. Ikkita bir xil satrli determinant qiymati nolga teng; ikkita satri bir xil bo'lgan determinantni hisoblasak,

$$\begin{vmatrix} -3 & 0 & 4 \\ 1 & 3 & -2 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix} = -36 + 0 + 0 + 36 - 0 - 0 = 0$$

bo'ladi, bu esa 3-xossaning to'g'riligini ko'rsatadi.

4. Determinant biror satrining hamma elementlari $m \neq 0$ songa ko'paytirilsa, uning qiymati shu m songa ko'payadi.

Haqiqatan ham, 1-xossada keltirilgan determinantning 2-satri elementlarini 2 ga ko'paytirsak,

$$\begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 2 & 6 & -4 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix} = 48 - 12 + 0 - 0 + 8 - 0 = 44$$

bo'lib, bu xossaning ham to'g'riligi ko'rinadi.

5. Determinantning ikkita satri elementlari o'zaro proporsional bo'lsa, uning qiymati nolga teng, misol uchun,

$$\begin{vmatrix} 2 & -1 & 1 \\ 6 & -3 & 3 \\ 0 & -2 & 1 \end{vmatrix}$$

determinant berilgan bo'lsin. Bu determinantning 1 va 2-satri elementlari o'zaro proporsional, uni hisoblasak

$$\begin{vmatrix} 2 & -1 & 1 \\ 6 & -3 & 3 \\ 0 & -2 & 1 \end{vmatrix} = -6 + 0 - 12 - 0 + 6 + 12 = 0$$

bo'lib, bu esa 5-xossaning to'g'riligini ko'rsatadi.

6. Determinantning qiymati, biror satri elementlarini unga mos algebraik to'ldiruvchilariga ko'paytirib qo'shilganiga teng. 1-xossada keltirilgan misolni qaraymiz:

$$\begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 1 & 3 & -2 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix}$$

bu determinantni 3-satr elementlari bo'yicha yoyib yozsak,

$$\begin{vmatrix} 2 & -1 & 0 \\ 1 & 3 & -2 \\ -3 & 0 & 4 \end{vmatrix} = -3 \cdot \begin{vmatrix} -1 & 0 \\ 3 & -2 \end{vmatrix} - 0 \cdot \begin{vmatrix} 2 & 0 \\ 1 & -2 \end{vmatrix} + 4 \cdot \begin{vmatrix} 2 & -1 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = -6 + 0 + 28 = 22$$

kelib chiqadi, bu esa 6-xossaning ham o'rinli ekanligini ko'rsatadi.

7. Determinant biror satrining har bir elementi ikkita qo'shiluvchidan iborat bo'lsa, u holda bu determinant ikkita determinant yig'indisiga teng bo'ladi, ya'ni

$$\begin{pmatrix} (a_{11} + b_1) a_{12} a_{13} \\ (a_{21} + b_2) a_{22} a_{23} \\ (a_{31} + b_3) a_{32} a_{33} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} a_{12} a_{13} \\ a_{21} a_{22} a_{23} \\ a_{31} a_{32} a_{33} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} b_1 a_{12} a_{13} \\ b_2 a_{22} a_{23} \\ b_3 a_{32} a_{33} \end{pmatrix}.$$

***n*- tartibli determinantlar haqida.** Ko'pgina masalalarni echishda 2 va 3-tartibli determinantlardan tashqari yanada yuqori tartibli determinantlar ham uchraydi. Masalan, 4-tartibli determinant ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & a_{14} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix}$$

Umumiy holda n -tartibli determinant

$$\begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1} & a_{n2} & \dots & a_{nn} \end{vmatrix} = a_{11}A_{11} + a_{12}A_{12} + \dots + a_{1n}A_{1n}$$

ko'rinishda bo'ladi. Bunda $A_{11}, A_{12}, \dots, A_{1n}$ mos ravishda $a_{11}, a_{12}, \dots, a_{1n}$ elementlarning algebraik to'ldiruvchilaridir. Ma'lumki, algebraik to'ldiruvchilar $A_{11}, A_{12}, \dots, A_{1n}$ ning tartiblari $(n-1)$ bo'ladi. Determinantlarning hamma xossalari n -tartibli determinant uchun ham o'rinlidir.

YUqori tartibli determinantlarni hisoblashda determinantlarning 6-xossasidan foydalanib, uning tartibini pasaytirish bilan 3 yoki 2-tartibli determinantlarga keltirib hisoblanadi. Masalan, 4-tartibli determinantni 1-satr elementlari bo'yicha voysak ushbu ko'rinishda bo'ladi:

$$\Delta = \begin{vmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} & a_{14} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} =$$

$$= a_{11} \begin{vmatrix} a_{22} & a_{23} & a_{24} \\ a_{32} & a_{33} & a_{34} \\ a_{42} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} - a_{12} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{23} & a_{24} \\ a_{31} & a_{33} & a_{34} \\ a_{41} & a_{43} & a_{44} \end{vmatrix} + a_{13} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} & a_{24} \\ a_{31} & a_{32} & a_{34} \\ a_{41} & a_{42} & a_{44} \end{vmatrix} - a_{14} \begin{vmatrix} a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \\ a_{41} & a_{42} & a_{43} \end{vmatrix}.$$

Bundan yuqori tartibli determinantlarning qiymati ham yuqoridagiga o'xshash hisoblanadi. Masalan, 6-tartibli determinantning qiymatini hisoblash kerak bo'lsa, uni biror satri yoki ustuni elementlari bo'yicha yoyib 5-tartibli determinantlarga, keyin o'z navbatida 5-tartibli determinanatlarni ham biror satri yoki ustuni elementlari bo'yicha yoyib, 4-tartibli determinantlarga keltiriladi va hokazo.


**Savollar: Takrorlash uchun
savollar**

1. Algebra va algoritm iborasi nima bilan bog'liq?
2. 2-tartibli determinant qanday belgilanadi va u nimaga teng?
3. 3-tartibli determinant qanday belgilanadi va u qanday hisoblanadi?
4. Determinantlarning xossalari nimalardan iborat.
5. 4-tartibli determinantlarning kattaligi qanday hisoblanadi?

«VENN diagrammasi»

U ikki yoki undan ortiq katta o'lchamdagi o'zaro kesishuvchi aylanalar asosida tuziladi. Aylanalar orasida yozuv uchun etarli joy qolishi kerak.

Bu diagramma asosan g'oyalarni kontrastlash (bir-biridan ajratish) uchun qo'llaniladi va taqqoslanayotgan ob'ektlarga xos umumiy va individual xususiyatlarini ko'rsatib beradi.



Vazifa. Ushbu 1)
$$\begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & 0 \\ 1 & 1 & 0 & 1 \\ 1 & 0 & 1 & 1 \\ 0 & 1 & 1 & 1 \end{vmatrix},$$

2)
$$\begin{vmatrix} 35436 & 46343 & 22429 \\ 17718 & 23171 & 11214 \\ 5906 & 7723 & 3727 \end{vmatrix}$$

determinantlarning qiymatini hisoblang.

Ushbu

1)
$$\begin{vmatrix} 2 & 3 & -5 \\ -1 & 4 & 1 \\ 6 & -2 & -7 \end{vmatrix};$$
 2)
$$\begin{vmatrix} -2 & 0 & 2 \\ 2 & -1 & -2 \\ 1 & -2 & 1 \end{vmatrix}$$

determinantlarni birinchi satr elementlari bo'yicha yoyib hisoblang


FOYDALANILGAN ADABIETLAR RUYXATI.

1. D.Iskandarov. Oliy algebra. 1 tom. O'quvpeddavnashr 1960y.
2. G.M.Fixtengols. Matematik analiz asoslari. T. «O'kituvchi» 1972y.
3. N.S.Piskunov. Differensial va integral hisob. 1 va 2 tom. M. Nauka. 1976y.
4. V.E.SHneyder, A.I.Slusskiy, A.E.SHumov. Oliy matematikaning qisqa asoslari. 1 va 2 tom. M."Visshaya shkola" 1978
5. E.U.Soatov. Oliy matematika. 1 va 2 jild. T."Ukituvchi" 1992y.



2 mavzu

MATRISA. ASOSIY TUSHUNCHALAR. MATRISA USTIDA AMALLAR. MATRISA RANGI.

- 
1. Matrisaning asosiy xususiyatlari.
 2. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari.
 3. Matrisa rangi.

5.1. Mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 30 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli amaliy
Ma'ruza rejasi	1. Matrisaning asosiy xususiyatlari. 2. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari. 3. Matrisa rangi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Matrisaning asosiy xususiyatlari. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari. Matrisa rangi. o'rgatish	
Pedagogik vazifalar: 1. Matrisaning asosiy xususiyatlari. 2. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari. 3. Matrisa rangi.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Matrisaning asosiy xususiyatlari. 2. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari. 3. Matrisa rangi.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali amaliy , suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	1. Matrisaning asosiy xususiyatlari. 2. Matrisa ustida qo'shish, ko'paytirish va ayrish amallari. 3. Matrisa rangi.	Tinglaydilar, yozadilar Talabalar berilgan Savollarga javob beradilar. Misollar echadilar
3- bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: “Matrisalar” ga doir misollar tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Tayanch iboralar:

Matrisa ustida amallar. Matrisani matrisaga ko'paytirish. Ekvivalent almashtirishlar. Ekvivalent matrisalar. Matrisalar rangi.

Matrisa ta'rifi oldingi ma'ruzada kiritilgan edi. Transponirlangan matrisa, matrisa satrlarini ustunlar orqali almashtirish yordamida hosil qilinadi va A^t kabi belgilanadi:

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \end{pmatrix} \qquad A^T = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{21} \\ a_{12} & a_{22} \\ a_{13} & a_{23} \end{pmatrix}$$

Matrisa ustida amallar o'ziga xos xususiyatga ega.

Matrisalarni qo'shish va ayrish amali, tartibi bir xil bo'lgan matrisalar uchun aniqlangan bo'lib, u mos o'rinda turgan elementlarini qo'shish yoki ayirish orqali bajariladi:

$$A=(a_i), V=(b_i), i=1, 2, \dots, n$$

matrisalar uchun $S=(c_i)$ yig'indi (ayirma) matrisa elementlari $c_i = a_i \pm b_i$ munosabat orqali topiladi.

Matrisani songa ko'paytirish ixtiyoriy tartibli matrisalar uchun aniqlangan bo'lib, bu amal matrisa har bir elementini shu songa ko'paytirish bilan aniqlanadi: $D = \lambda A$.

$$A = (a_{ij})_{i,j=1}^{m,n}, \quad D = (d_{ij})_{i,j=1}^{m,n}, \quad d_{ij} = \lambda a_{ij} \quad i = 1, 2, \dots, m, \quad j = 1, 2, \dots, n$$

Matrisalarni ko'paytirish shunday matrisalar ustida aniqlanganki, bunda birinchi matrisa ustunlar soni ikkinchi matrisa satrlar soniga teng bo'lishi kerak. Bu shart bajarilganda «satrni ustunga ko'paytirish» qoidasi bajariladi.

$$A = (a_{ij})_{i,j=1}^{m,n}, \quad B = (b_{ij})_{i,j=1}^{n,l}, \quad \text{bo'lsa,} \quad S = AB \quad \text{ko'paytma elementlari}$$

$$c_{ij} = \sum_{k=1}^n a_{ik} b_{kj} \quad i = 1, 2, \dots, m, \quad j = 1, 2, \dots, l \quad \text{orqali topiladi.}$$

Kvadrat matrisa asosiy diagonal elementlari 1 lardan, qolgan barcha elementlari 0 lardan iborat bo'lsa, bunday matrisa birlik matrisa deyiladi.

$m \times n$ tartibga ega bo'lgan matrisani qaraylik.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \dots & a_{1k} & \dots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \dots & a_{2k} & \dots & a_{2n} \\ \cdot & \cdot & \dots & \cdot & \dots & \cdot \\ a_{m1} & a_{m2} & \dots & a_{mk} & \dots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

Bu matrisadan ixtiyoriy k ta satr va k ta ustunni ajratamiz. Ajratilgan satrlar va ustunlar kesishgan joyda turgan elementlar k tartibli kvadrat matrisa xosil qiladi.

A matrisaning k -tartibli minori deb bu matrisadan ixtiyoriy k ta satr va k ta ustun ajratib hosil qilingan kvadrat matrisa determinantiga aytiladi.

Matrisa elementlaridan tuzilgan minorlarining ba'zilar nol ham bo'lishi mumkin.

Matrisa rangi deb, uning noldan farqli minorlari tartibining eng kattasiga aytiladi.

Agar A matrisaning rangi r ga teng bo'lsa bu narsa A matrisada hech bo'lmaganda bitta noldan fvrqli r tartibli minor birligini, biroq r dan katta tartibli har qanday minor nolga tengligini anglatadi.

Matrisa rangini aniqlashda odatda, ko'p sondagi diterminantlarni xisoblashga to'g'ri keladi. Bu ishni osonlashtirish uchun maxsus usullarni bayonidan oldin matrisani elementar almashtirishlarini keltiramiz.

- matrisani biror satri elementlarini noldan farqli bir nolga ko'paytirish;
- matrisaning biror satrga elementlariga boshqa satrning mos elementlarini biror songa ko'paytirib qo'shish;
- matrisa satrlari o'rnini almashtirish;
- matrisada, barcha elementlari nol bo'lgan satrini tashlab yuborish;

Bir biridan almashtirishlar orqali hosil, qilinadigan matrisalar ekvivalent matrisalar deb ataladi. Ekvivalent matrisalar umuman aytganda bir- biriga teng emas lekin ularning ranglari teng bo'lishidan foydalanish mumkin.

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Matrisa deb nimaga aytiladi?
2. Matrisaning satri va ustuni deganda nimani tushunasiz?

3. Matrisani tartibi deganda nimani tushunasiz?
4. Kvadrat matrisa deb nimaga aytiladi?
5. Sonni matrisaga ko'paytirish deganda nimani tushunasiz?
6. 0 – Nol matrisa. E – birlik matrisa deganda nimani tushunasiz?
7. Diagonal matrisa deganda nimani tushunasiz?
8. Matrisalarni qanday shart bajarilganda ko'paytirish mumkin?
9. Matrisani qo'shish va ayrish qoidalarini ayting.
10. Matrisani rangi deganda nimani tushunasiz?

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. YO. Soatov «Oliy matematika» T. 1992 y.

3

mavzu

Teskari matrisa tushunchasi.

**Teskari matrisa orkali chizikli tenglamalar
sistemasini echish**

- Minorlar va algebraik to'ldiruvchilar.
- Teskari matrisa
- Teskari matrisa orkali chizikli tenglamalar sistemasini echish doir misollar

5.1. Mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

4-mavzu.	Teskari matrisa tushunchasi. Teskari matrisa orqali chiziqli tenglamalar sistemasini echish
-----------------	--


9.1. Mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 30 gacha
Mashg'ulot shakli	amaliy
Mashg'ulot rejasi	1.Minorlar va algebraik to'ldiruvchilar. 2 Teskari matrisa. 3 Teskari matrisa orqali chiziqli tenglamalar sistemasini echish
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Matrisalar algebrasi. Teskari matrisa tushunchasi. Teskari matrisa orqali chiziqli tenglamalar sistemasini echish.	
Pedagogik vazifalar: • Matrisalar algebrasi haqida tushunchalar berish. • Matrisalar ustida elementar almashtirish bajarish ketma-ketligini ko'rsatilib o'tiladi. •Kramer formulasi tushuntiriladi •Teskari matrisani topish yo'llari tushuntirib beriladi. • Teskari matrisa yordamida tenglamalar sistemasini echish yo'llari ko'rsatiladi. • Birgalashish kriteriysi haqida ma'lumotlar beriladi.	O'quv faoliyati natijalari: • Matrisalar algebrasi haqida tushunchalarga ega. • Matrisalar ustida elementar almashtirish bajarish ketma-ketligini ko'rsatilib bera oladi. •Kramer formulasi tushuntirib bera oladi. •Teskari matrisani topish yo'llari yaxshi anglab olgan. • Teskari matrisa yordamida tenglamalar sistemasini echishni biladi. Doir misollar echadi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali amaliy , suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

Mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	2.1. Matrisalar algebrasi haqida tushunchalar berish. 2.2. Matrisalar ustida elementar almashtirish bajarish ketma-ketligini ko'rsatilib o'tiladi. 2.4. Teskari matrisani topish yo'llari tushuntirib beriladi. 2.5. Teskari matrisa yordamida tenglamalar sistemalarini echish yo'llari ko'rsatiladi. 2.6. Birgalashish kriteriysi haqida ma'lumotlar beriladi. 2.7. Talabalar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida quyidagi savollarni beradi: ➤ Matrisaning taxrifini ayting? ➤ Kramer formulasi ayting? ➤ Teskari matrisani topish yo'llari tushuntirib bering? ➤ Teskari matrisa yordamida tenglamalar sistemalarini echish yo'llari ko'rsating?	Tinglaydilar, yozadilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar. misolga javob beradilar.
3- bosqich YAKuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Matrisa" ga klaster tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Ilovalar



Tayanch tushunchalar

Matrisa, matrisaning o'lchami, matrisaning determinanti, maxsus matrisa, maxsusmas matrisa, bosh diagonal, diagonal matrisa, birlik matrisa, transponirlangan matrisa, teng matrisalar, matrisalarning yig'indisi, matrisani songa ko'paytirish, matrisalar ko'paytmasi, matrisaning k-tartibli minori, matrisaning rangi, elementar almashtirishlar, teskari matrisa.

1-ta'rif. m ta satrli va n ta ustunli to'g'ri burchakli $m \cdot n$ ta elementdan tuzilgan jadval

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \cdots & a_{2n} \\ \text{---} & \text{---} & \text{---} & \text{---} \\ a_{m1} & a_{m2} & \cdots & a_{mn} \end{pmatrix}$$

$m \times n$ **o'lchamli matrisa** deyiladi. A matrisani qisqacha (a_{ij}) ($i = 1, \dots, m, j = 1, \dots, n$) bilan ham belgilash mumkin. Matrisalarda satrlar soni ustunlar soniga teng bo'lsa, bunday matrisalar **kvadrat matrisa** deb ataladi.

Har bir n tartibli kvadrat matrisa uchun uning elementlaridan tuzilgan determinantni hisoblash mumkin, bu determinantga A matrisaning determinanti deyiladi va $\det A$ yoki $|A|$ bilan belgilanadi. $\det A = 0$ bo'lsa, A matrisaga maxsus matrisa, $\det A \neq 0$ bo'lsa, maxsusmas matrisa deyiladi. Kvadrat matrisaning $a_{11}, a_{22}, \dots, a_{nn}$ elementlar joylashgan diagonali bosh diagonal, $a_{1n}, a_{2n-1}, \dots, a_{n1}$ elementlari joylashgan diagonali yordamchi diagonal deyiladi. Bosh diagonalda elementlar 0 dan farqli boshqa barcha elementlari 0 ga teng kvadrat matrisa diagonal matrisa deyiladi. Masalan,

$$A = \begin{pmatrix} 5 & 0 & 0 & 0 \\ 0 & -3 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 2 & 0 \\ 0 & 0 & 0 & -1 \end{pmatrix}$$

matrisa diagonal matrisadir. Diagonalda barcha elementlari 1 ga teng diagonal matrisa birlik matrisa deyiladi va

$$E = \begin{pmatrix} 1 & 0 & \dots & 0 \\ 0 & 1 & \dots & 0 \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 0 & 0 & \dots & 1 \end{pmatrix}$$

bilan belgilanadi.

Faqat bitta satrdan iborat $(a_{11} \ a_{12} \ a_{13} \ a_{14})$ matrisaga satr matrisa deyiladi. Faqat bitta ustunga ega

$$\begin{pmatrix} a_{11} \\ a_{21} \\ a_{31} \\ a_{41} \end{pmatrix}$$

matrisaga ustun matriska deb ataladi.

Barcha elementlari 0 lardan iborat bo'lgan matrisaga no'l matrisa deyiladi va O bilan belgilanadi.

A matrisaga quyidagi matrisani mos qo'yish mumkin:

$$A^T = \begin{pmatrix} a_{11}a_{21}\cdots a_{m1} \\ a_{12}a_{22}\cdots a_{m2} \\ \\ a_{1n}a_{2n}\cdots a_{mn} \end{pmatrix}$$

Bu matrisaning har bir satri A matrisaning unga mos ustunidan iborat. A^T matrisani A matrisaga nisbatan transponirlangan deyiladi.

$A = (a_{ij})$ va $B = (b_{ij})$ ($i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$) matrislarning mos elementlari $a_{ij} = b_{ij}$ teng bo'lsa, bunday matrisalar teng deyiladi.

2. Matrisalar ustida amallar. Matrisalarni qo'shish, songa ko'paytirish va bir-biriga ko'paytirish mumkin.

Bir xil o'lchamli $A = (a_{ij})$ va $B = (b_{ij})$ ($i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$) matrisalarning yig'indisi deb, elementlari $c_{ij} = a_{ij} + b_{ij}$ ravishda aniqlanadigan uchinchi $C = (c_{ij})$ matrisaga aytiladi. Ravshanki, C matrisaning o'lchami oldingi matrisalarning o'lchami bilan bir xil bo'ladi. Masalan:

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 2 & 0 \\ 3 & 1 & -1 \\ 0 & 4 & 5 \end{pmatrix} \text{ va } B = \begin{pmatrix} 0 & 1 & 3 \\ -2 & 4 & 2 \\ 5 & 0 & 4 \end{pmatrix}$$

matrisalar yig'indisi

$$A + B = \begin{pmatrix} 1+0 & 2+1 & 0+3 \\ 3-2 & 1+4 & -1+2 \\ 0+5 & 4+0 & 5+4 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 & 3 & 3 \\ 1 & 5 & 1 \\ 5 & 4 & 9 \end{pmatrix} = C$$

bo'ladi. Matrisalarni qo'shish amali quyidagi o'rin almashtirish va guruhlash xossalariga ega, yaxni

$$A + B = B + A, \quad (A + B) + C = A + (B + C).$$

Matrisalarni qo'shishda biror matrisaga O matrisani qo'shish odatdagi sonlarni qo'shishdagi no'l soni rolini o'ynaydi, yaxni

$$A + O = A.$$

masalan,

$$\begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \\ 0 & 0 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix}.$$

A matrisani λ songa ko'paytirish deb uning hamma elementlarini shu songa ko'paytirishga aytiladi, yaxni

$$\lambda A = \lambda \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & a_{13} \\ a_{21} & a_{22} & a_{23} \\ a_{31} & a_{32} & a_{33} \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} \lambda a_{11} & \lambda a_{12} & \lambda a_{13} \\ \lambda a_{21} & \lambda a_{22} & \lambda a_{23} \\ \lambda a_{31} & \lambda a_{32} & \lambda a_{33} \end{pmatrix}$$

masalan,

$$A = \begin{pmatrix} -3 & 2 & 0 \\ 4 & 3 & 1 \\ 5 & 2 & 6 \end{pmatrix}$$

matrisani $\lambda = 3$ ga ko'paytirsak,

$$\lambda A = 3 \cdot \begin{pmatrix} -3 & 2 & 0 \\ 4 & 3 & 1 \\ 5 & 2 & 6 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -9 & 6 & 0 \\ 12 & 9 & 3 \\ 15 & 6 & 12 \end{pmatrix}$$

bo'ladi.

$m \cdot k$ o'lchamli $A = (a_{ij})$ matrisaning $k \cdot n$ o'lchamli $B = (b_{ij})$ matrisaga, ko'paytmasi deb $m \cdot n$ o'lchamli shunday $C = (c_{ij})$ matrisaga aytiladiki uning c_{ij} elementi A matrisa i -satri elementlarini B matrisa j -ustunining mos elementlariga ko'paytmalari yig'indisiga teng, yaxni:

$$c_{ij} = a_{i1}b_{1j} + a_{i2}b_{2j} + \dots + a_{ik}b_{kj}$$

Matrisalar ko'paytmasi $C = AB$ bilan belgilanadi. Demak, matrisalarni ko'paytirish uchun birinchi ko'paytuvchining ustunlari soni, 2-ko'paytuvchining satrlari soniga teng bo'lishi talab qilinadi. SHu sababli, umuman $AB \neq BA$.

1-misol. $A = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 2 & 3 \\ 4 & -3 & 1 & 0 \\ 2 & 5 & 3 & 1 \end{pmatrix}$ va $B = \begin{pmatrix} 2 & 7 \\ 0 & 2 \\ 5 & 4 \\ 6 & 0 \end{pmatrix}$ matrisalar berilgan. A va B

matrisalarni ko'paytiring.

Echish. Birinchi matrisaning ustunlar soni, ikkinchi matrisaning satrlar soniga teng, shuning uchun bu matrisalarni ko'paytirish mumkin:

$$AB = \begin{pmatrix} 1 & 0 & 2 & 3 \\ 4 & -3 & 1 & 0 \\ 2 & 5 & 3 & 1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 2 & 7 \\ 0 & 2 \\ 5 & 4 \\ 6 & 0 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 1 \cdot 2 + 0 \cdot 0 + 2 \cdot 5 + 3 \cdot 6 & 1 \cdot 7 + 0 \cdot 2 + 2 \cdot 4 + 3 \cdot 0 \\ 4 \cdot 2 + (-3) \cdot 0 + 1 \cdot 5 + 0 \cdot 6 & 4 \cdot 7 + (-3) \cdot 2 + 1 \cdot 4 + 0 \cdot 0 \\ 2 \cdot 2 + 5 \cdot 0 + 3 \cdot 5 + 1 \cdot 6 & 2 \cdot 7 + 5 \cdot 2 + 3 \cdot 4 + 1 \cdot 0 \end{pmatrix} =$$

$$= \begin{pmatrix} 30 & 15 \\ 13 & 26 \\ 25 & 36 \end{pmatrix}.$$

Matrisalarni ko'paytirish ushbu

$$A \cdot (BC) = (AB) \cdot C$$

guruhlash hamda

$$(A + B) \cdot C = AC + BC$$

taqsimot

xossasiga

ega.

Masalan,

$$A = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & 6 & -4 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} 0 & 2 \\ 3 & 4 \\ 1 & -3 \end{pmatrix}, \quad C = \begin{pmatrix} -1 & 2 \\ 0 & -3 \end{pmatrix}$$

bo'lsin. Bu holda

$$\begin{aligned} A \cdot (BC) &= \begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & 6 & -4 \end{pmatrix} \cdot \left[\begin{pmatrix} 0 & 2 \\ 3 & 4 \\ 1 & -3 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} -1 & 2 \\ 0 & -3 \end{pmatrix} \right] = \begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & 6 & -4 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 \cdot (-1) + 2 \cdot 0 & 0 \cdot 2 + 2 \cdot (-3) \\ 3 \cdot (-1) + 4 \cdot 0 & 3 \cdot 2 + 4 \cdot (-3) \\ 1 \cdot (-1) + (-3) \cdot 0 & 1 \cdot 2 + (-3) \cdot (-3) \end{pmatrix} \\ &= \begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & 6 & -4 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 & -6 \\ -3 & -6 \\ -1 & 11 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -13 & 14 \\ -14 & -110 \end{pmatrix}. \end{aligned}$$

Endi $(AB) \cdot C$ ko'paytirishni bajaramiz:

$$\begin{aligned} (AB)C &= \left[\begin{pmatrix} 2 & 3 & 4 \\ 5 & 6 & -4 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 0 & 2 \\ 3 & 4 \\ 1 & -3 \end{pmatrix} \right] \cdot \begin{pmatrix} -1 & 2 \\ 0 & -3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 13 & 4 \\ 14 & 46 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} -1 & 2 \\ 0 & -3 \end{pmatrix} = \\ &= \begin{pmatrix} 13 \cdot (-1) + 4 \cdot 0 & 13 \cdot 2 + 4 \cdot (-3) \\ 14 \cdot (-1) + 46 \cdot 0 & 14 \cdot 2 + 46 \cdot (-3) \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -13 & 14 \\ -14 & -110 \end{pmatrix} \end{aligned}$$

SHunday qilib

$$A \cdot (BC) = (AB) \cdot C$$

xossa o'rinli bo'ladi. Endi taqsimot xossasini qaraymiz:

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 4 & -3 \\ 0 & 2 & -1 \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} -1 & 2 & -2 \\ 3 & -2 & 0 \end{pmatrix}, \quad C = \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 0 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix}$$

bo'lsin. Oldin taqsimot xossasining chap tomonini

$$(A + B) \cdot C$$

hisoblaymiz:

$$\begin{aligned}
 (A+B) \cdot C &= \left[\begin{pmatrix} 1 & 4 & -3 \\ 0 & 2 & -1 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} -1 & 2 & -2 \\ 3 & -2 & 0 \end{pmatrix} \right] \cdot \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 0 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} = \\
 &= \begin{pmatrix} 0 & 6 & -5 \\ 3 & 0 & -1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 0 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -5 & 34 \\ 5 & -7 \end{pmatrix}.
 \end{aligned}$$

O'ng tomoni

$$\begin{aligned}
 AC + BC &= \begin{pmatrix} 1 & 4 & -3 \\ 0 & 2 & -1 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 0 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} -1 & 2 & -2 \\ 3 & -2 & 0 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 2 & -3 \\ 0 & 4 \\ 1 & -2 \end{pmatrix} = \\
 &= \begin{pmatrix} -1 & 19 \\ -1 & 10 \end{pmatrix} + \begin{pmatrix} -4 & 15 \\ 6 & -17 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} -5 & 34 \\ 5 & -7 \end{pmatrix}.
 \end{aligned}$$

bo'ladi. SHunday qilib $(A+B) \cdot C = AC + BC$ tenglik o'rinli bo'ladi.

Istalgan kvadrat matrisa A ni mos birlik E matrisaga ko'paytirganda $AE = EA = A$ tenglik o'rinli bo'ladi, masalan

$$\begin{aligned}
 A &= \begin{pmatrix} 2 & 1 & 0 \\ -1 & 2 & 3 \\ -3 & 0 & -2 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} = \\
 &= \begin{pmatrix} 2 \cdot 1 + 1 \cdot 0 + 0 \cdot 0 & 2 \cdot 0 + 1 \cdot 1 + 0 \cdot 0 & 2 \cdot 0 + 1 \cdot 0 + 0 \cdot 1 \\ -1 \cdot 1 + 2 \cdot 0 + 3 \cdot 0 & -1 \cdot 0 + 2 \cdot 1 + 3 \cdot 0 & -1 \cdot 0 + 2 \cdot 0 + 3 \cdot 1 \\ -3 \cdot 1 + 0 \cdot 0 + 0 \cdot (-2) & -3 \cdot 0 + 0 \cdot 1 + (-2) \cdot 0 & 3 \cdot 0 + 0 \cdot 0 + (-2) \cdot 1 \end{pmatrix} = \\
 &= \begin{pmatrix} 2 & 1 & 0 \\ -1 & 2 & 3 \\ -3 & 0 & -2 \end{pmatrix}
 \end{aligned}$$

Xuddi shunga o'xshash $EA = A$ tenglikni ham tekshirib ko'rish mumkin (buni bajarishni o'quvchiga havola qilamiz).

4. Teskari matrisa va uni topish. A kvadrat matrisa uchun $AB = BA = E$ birlik matrisa bo'lsa, B kvadrat matrisa A matrisaga **teskari matrisa** deyiladi.

Odatda, A matrisaga teskari matrisa A^{-1} bilan belgilanadi.

Teorema: A kvadrat matrisa teskari matrisaga ega bo'lishi uchun A matrisaning determinanti 0 dan farqli bo'lishi zarur va etarlidir. (Bu teoremani isbotsiz keltirdik, uning isbotini kengroq dasturli kurslardan topish mumkin, masalan, V.E.SHneyder va boshqalar. «Oliy matematika qisqa kursi» 1tom. T. O'qituvchi. 1985. 407 b.)

A kvadrat matrisa uchun $\det A \neq 0$ bo'lsa, unga teskari bo'lgan yagona matrisa A^{-1} mavjud.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} & \cdots & a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} & \cdots & a_{2n} \\ \text{-----} \\ a_{n1} & a_{n2} & \cdots & a_{nn} \end{pmatrix}$$

matrisaga teskari A^{-1} matrisa

$$A^{-1} = \frac{1}{\Delta} \begin{pmatrix} A_{11} & A_{21} & \cdots & A_{n1} \\ A_{12} & A_{22} & \cdots & A_{n2} \\ \text{-----} \\ A_{1n} & A_{2n} & \cdots & A_{nn} \end{pmatrix}$$

formula bilan topiladi. Bunda A_{ij} mos ravishda a_{ij} elementlarning algebraik to'ldiruvchilari va $\Delta = \det A$.

Teskari matrisani topishga misol qaraymiz.
2-misol. Ushbu

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 4 \\ 1 & 3 & 9 \end{pmatrix}$$

matrisaga teskari matrisani toping.

Echish. Oldin A matrisaning determinantini hisoblaymiz:

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 4 \\ 1 & 3 & 9 \end{vmatrix} = 18 + 4 + 3 - 2 - 12 - 9 = 2 \neq 0.$$

Yuqoridagi teorema asosan teskari matrisa mavjud, chunki
 $\Delta = 2 \neq 0$

yaxni, berilgan matrisa maxsusmas matrisadir. A^{-1} ni topish uchun A matrisa hamma elementlarining algebraik to'ldiruvchilarini topamiz:

$$A_{11} = \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ 3 & 9 \end{vmatrix} = 6, \quad A_{12} = -\begin{vmatrix} 1 & 4 \\ 1 & 9 \end{vmatrix} = -5, \quad A_{13} = \begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = 1,$$

$$A_{21} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 3 & 9 \end{vmatrix} = -6, \quad A_{22} = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 9 \end{vmatrix} = 8,$$

$$A_{23} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = -2, \quad A_{31} = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 2 & 4 \end{vmatrix} = 2,$$

$$A_{32} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 4 \end{vmatrix} = -3, \quad A_{33} = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} = 1.$$

Teskari matrisani topish

$$A^{-1} = \frac{1}{\Delta} \begin{pmatrix} A_{11} & A_{12} & A_{13} \\ A_{21} & A_{22} & A_{23} \\ A_{31} & A_{32} & A_{33} \end{pmatrix}$$

formulasiga asosan

$$A^{-1} = \frac{1}{2} \begin{pmatrix} 6 & -6 & 2 \\ -5 & 8 & -3 \\ 1 & -2 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 & -3 & 1 \\ -2,5 & 4 & -1,5 \\ 0,5 & -1 & 0,5 \end{pmatrix}$$

bo'ladi. A^{-1} teskari matrisaning to'g'ri topilganligini

$$AA^{-1} = A^{-1}A = E$$

tenglikning bajarilishi bilan tekshirib ko'rish mumkin, haqiqatan ham,

$$\begin{aligned} AA^{-1} &= \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 4 \\ 1 & 3 & 9 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 3 & -3 & 1 \\ -2,5 & 4 & -1,5 \\ 0,5 & -1 & 0,5 \end{pmatrix} = \\ &= \begin{pmatrix} 1 \cdot 3 + 1 \cdot (-2,5) + 1 \cdot 0,5 & 1 \cdot (-3) + 1 \cdot 4 + 1 \cdot (-1) & 1 \cdot 1 + 1 \cdot (-1,5) + 1 \cdot 0,5 \\ 1 \cdot 3 + 2 \cdot (-2,5) + 4 \cdot 0,5 & 1 \cdot (-3) + 2 \cdot 4 + 4 \cdot (-1) & 1 \cdot 1 + 2 \cdot (-1,5) + 4 \cdot 0,5 \\ 1 \cdot 3 + 3 \cdot (-2,5) + 9 \cdot 0,5 & 1 \cdot (-3) + 3 \cdot 4 + 9 \cdot (-1) & 1 \cdot 1 + 3 \cdot (-1,5) + 9 \cdot 0,5 \end{pmatrix} = \\ &= \begin{pmatrix} 1 & 0 & 0 \\ 0 & 1 & 0 \\ 0 & 0 & 1 \end{pmatrix} \end{aligned}$$

ya'ni, $AA^{-1} = E$ birlik matrisa hosil bo'ladi, bu A^{-1} teskari matrisaning to'g'ri topilganligini isbotlaydi.

5. Chiziqli tenglamalar sistemasini matrisalar yordamida echish Endi matrisalar yordamida chiziqli tenglamalar sistemasini echishga o'tamiz.

[illegible]

n noma'lumli, n ta tenglamalar sistemasi berilgan bo'lsin.

$$A = \begin{pmatrix} a_{11} & a_{12} \cdots a_{1n} \\ a_{21} & a_{22} \cdots a_{2n} \\ \vdots & \vdots \\ a_{n1} & a_{n2} \cdots a_{nn} \end{pmatrix}, \quad B = \begin{pmatrix} b_1 \\ b_2 \\ \vdots \\ b_n \end{pmatrix}, \quad X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ \vdots \\ x_n \end{pmatrix}$$

belgilashlarni kiritamiz. Endi (7) sistemani matrisalarni ko'paytirish qoidasidan foydalanib,

$$AX = B \quad (8)$$

ko'rinishda yozish mumkin. $\det A \neq 0$ bo'lsa, teskari matrisa A^{-1} mavjud va $A^{-1}AX = A^{-1}B$ hosil bo'ladi. SHunday qilib, noma'lum X matrisa $A^{-1}B$ matrisaga teng bo'ladi, yaxni

$$X = A^{-1}B.$$

Bu (7) tenglamalar sistemasini echishning ***matrisaviy yozuvini*** bildiradi.

1-misol. Matrisalar yordamida ushbu tenglamalar sistemasini eching:

$$\begin{cases} x_1 + x_2 + x_3 = 4, \\ x_1 + 2x_2 + 4x_3 = 4, \\ x_1 + 3x_2 + 9x_3 = 2 \end{cases}.$$

Echish. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$A = \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 4 \\ 1 & 3 & 9 \end{pmatrix}; \quad X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix}; \quad B = \begin{pmatrix} 4 \\ 4 \\ 2 \end{pmatrix}.$$

Bu matrisalar yordamida berilgan tenglamalar sistemasini

$$AX = B \quad (9)$$

ko'rinishda yozamiz. Endi A matrisaning determinantini hisoblaymiz.

$$\Delta = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 \\ 1 & 2 & 4 \\ 1 & 3 & 9 \end{vmatrix} = 1 \cdot 2 \cdot 9 + 1 \cdot 4 \cdot 1 + 1 \cdot 3 \cdot 1 - 1 \cdot 2 \cdot 1 - 1 \cdot 1 \cdot 9 - 1 \cdot 4 \cdot 3 = 2.$$

A matrisaning determinanti 0 dan farqli bo'lganligi uchun, unga teskari yagona A^{-1} matrisa mavjud va tenglamalar sistemasi yagona echimga ega bo'ladi. Endi A^{-1} teskari matrisani topish uchun Δ determinant elementlarining hamma algebraik to'ldiruvchilarini hisoblaymiz:

$$A_{11} = \begin{vmatrix} 2 & 4 \\ 3 & 9 \end{vmatrix} = 18 - 12 = 6, \quad A_{12} = -\begin{vmatrix} 1 & 4 \\ 1 & 9 \end{vmatrix} = -5, \quad A_{13} = \begin{vmatrix} 1 & 2 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = 1$$

$$A_{21} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 3 & 9 \end{vmatrix} = -6, \quad A_{22} = \begin{vmatrix} 1 & 4 \\ 1 & 9 \end{vmatrix} = 8, \quad A_{23} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 3 \end{vmatrix} = -2$$

$$A_{31} = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 2 & 4 \end{vmatrix} = 2, \quad A_{32} = -\begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 4 \end{vmatrix} = -3, \quad A_{33} = \begin{vmatrix} 1 & 1 \\ 1 & 2 \end{vmatrix} = 1.$$

Teskari A^{-1} matrisani topish formulasiga asosan,

$$A^{-1} = \frac{1}{2} \begin{pmatrix} 6 & -6 & 2 \\ -5 & 8 & -3 \\ 1 & -2 & 1 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 & -3 & 1 \\ -2,5 & 4 & -1,5 \\ 0,5 & -1 & 0,5 \end{pmatrix}$$

(9) tenglikning ikki tomonini chapdan A^{-1} ga ko'paytirsak, $A^{-1}AX = A^{-1}B$ yoki $X = A^{-1}B$ bo'lib, yaxni

$$X = \begin{pmatrix} 3 & -3 & 1 \\ -2,5 & 4 & -1,5 \\ 0,5 & -1 & 0,5 \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} 4 \\ 4 \\ 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 3 \cdot 4 + (-3) \cdot 4 + 1 \cdot 2 \\ -2,5 \cdot 4 + 4 \cdot 4 + (-1,5) \cdot 2 \\ 0,5 \cdot 4 - 1 \cdot 4 + 0,5 \cdot 2 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \\ -1 \end{pmatrix}$$

tenglik hosil bo'ladi.

SHunday kilib, $X = \begin{pmatrix} x_1 \\ x_2 \\ x_3 \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} 2 \\ 3 \\ -1 \end{pmatrix}$ yoki $x_1 = 2, x_2 = 3, x_3 = -1$.

4. Agar $S=0$, $V=0$ bo'lsa, u holda $Ax=0$, ya'ni $x=0$ va bu Oy o'qining tenglamasidir.

5. Agar $S=0$ va $A=0$ bo'lsa, u holda $Vy=0$, ya'ni $y=0$ va bu Ox o'qining tenglamasidir.


Misol. Umumiy tenglamasi $2x + 3u + 7 = 0$ bo'lgan to'g'ri chiziqning burchak koeffisientli tenglamasini toping.

$$2x + 3u + 7 = 0, \quad 3y = -2x - 7, \quad y = -\frac{2}{3}x - \frac{7}{3}, \quad k = -\frac{2}{3}, \quad b = -\frac{7}{3}.$$

Bir nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar dastasi.

Biror $M(x_0; u_0)$ nuqta berilgan bo'lsa, undan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar dastasi $u = k(x - x_0) + u_0$ ko'rinishda bo'ladi.

Haqiqatan, ixtiyoriy to'g'ri chiziq tenglamasini yozamiz $u = kx + b$. Bu to'g'ri chiziq M nuqtadan o'tgani uchun $u_0 = kx_0 + b$ bo'ladi. Uni avvalgi tenglamadan ayirib $u - u_0 = k(x - x_0)$ bo'lishini topamiz.



Berilgan ikki nuqtadan o'tgan to'g'ri chiziq tenglamasi.

Berilgan $M_1(x_1; y_1)$, $M_2(x_2; y_2)$ nuqtalardan o'tgan to'g'ri chiziq tenglamasi $\frac{x - x_1}{x_2 - x_1} = \frac{y - y_1}{y_2 - y_1}$ bo'ladi.

Misol. $M_1(1; 2)$, $M_2(-2; 3)$ nuqtalardan o'tgan to'g'ri chiziq tenglamasini tuzing.

Echish. Berilgan nuqtalar koordinatalaridan foydalanib $\frac{x-1}{-2-1} = \frac{y-2}{3-2}$ munosabatni, bundan esa $x+3y-7=0$ tenglamani topamiz.


To'g'ri chiziqning kesmalar bo'yicha tenglamasi.

Koordinata o'qlaridan mos ravishda a va b kesmalarni ajratuvchi to'g'ri chiziq tenglamasini chiqaraylik. Izlanayotgan to'g'ri chiziq tenglamasini $Ax + By + C = 0$ ko'rinishda olamiz. Agar $A \neq 0$, $B \neq 0$, $C \neq 0$ bo'lsa, u holda berilgan tenglamani

$$\frac{A}{-C}x + \frac{B}{-C}y = 1 \text{ yoki } \frac{x}{\frac{-C}{A}} + \frac{y}{\frac{-C}{B}} = 1$$

ko'rinishda yozamiz. Endi $a = -\frac{C}{A}$, $b = -\frac{C}{B}$ belgilash

kiritib, $\frac{x}{a} + \frac{y}{b} = 1$ to'g'ri chiziqning kesmalar bo'yicha tenglamasini keltirib chiqaramiz.



To'g'ri chiziqning normal tenglamasi.

Izlanayotgan to'g'ri chiziq tenglamasini $\frac{x}{a} + \frac{y}{b} = 1$ ko'rinishida olaylik. Koordinata boshidan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani $|OC|=p$ deylik. Agar p masofa va α burchaklar berilgan bo'lsa, u holda AOS uchburchakdan, $a = \frac{p}{\cos \alpha}$, VOS uchburchakdan $\frac{p}{OB} = \cos(90^\circ - \alpha)$, ya'ni,

$b = \frac{p}{\sin \alpha}$ bo'ladi. Topilgan a , b larni yuqoridagi tenglamaga qo'ysak hosil bo'lgan

$$x \cos \alpha + y \sin \alpha - p = 0$$

tenglama to'g'ri chiziqning *normal tenglamasi* deyiladi.

Agar to'g'ri chiziqning tenglamasi $Ax + By + C = 0$ umumiy ko'rinishda berilgan bo'lsa, uni normal ko'rinishga keltirish uchun bu tenglamani har ikkala tomonini normallovchi ko'paytuvchi deb ataluvchi $\mu = \frac{1}{\sqrt{A^2 + B^2}}$ ga ko'paytirish kifoya:

$$\frac{A}{\sqrt{A^2 + B^2}}x + \frac{B}{\sqrt{A^2 + B^2}}y + \frac{C}{\sqrt{A^2 + B^2}} = 0$$

normal tenglamani yuqoridagi tenglama bilan solishtirsak

$$\cos \alpha = \frac{A}{\sqrt{A^2 + B^2}}, \quad \sin \alpha = \frac{B}{\sqrt{A^2 + B^2}}, \quad p = \frac{C}{\sqrt{A^2 + B^2}}$$

bo'lishi kelib chiqadi.

Misol. $4x-3y-10=0$ to'g'ri chiziqlarning umumiy tenglamasini normal ko'rinishga keltiring.

Echish. Avval normallovchi ko'paytuvchini topamiz: $\mu = \frac{1}{\sqrt{16+9}} = \frac{1}{5}$.


Natijada $\frac{4}{5}x - \frac{3}{5}y - 2 = 0$ tenglama berilgan to'g'ri chiziqlarning normal tenglamasi hosil qilinadi.

Ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak va ularning parallellik, perpendikulyarlik shartlari.

Bir-biri bilan kesishadigan ikki to'g'ri chiziq, mos ravishda $y=k_1x+b_1$ va $y=k_2x+b_2$ tenglamalar bilan berilgan bo'lsin. Ular orasidagi φ burchak topilsin.

Echish. SHakldan $\varphi_2 = \varphi + \varphi_1$ yoki $\varphi = \varphi_2 - \varphi_1$.
Ma'lumki

$$\operatorname{tg} \varphi = \operatorname{tg}(\varphi_2 - \varphi_1) = \frac{\operatorname{tg} \varphi_2 - \operatorname{tg} \varphi_1}{1 + \operatorname{tg} \varphi_1 \operatorname{tg} \varphi_2}.$$



Masala shartiga ko'ra $\operatorname{tg} \varphi_1 = k_1$, $\operatorname{tg} \varphi_2 = k_2$.
Bularni yuqoridagiga qo'yib, ikki to'g'ri chiziq

orasidagi burchak uchun $\operatorname{tg} \varphi = \frac{k_2 - k_1}{1 + k_1 k_2}$ formulani hosil qilamiz. Agar φ uchun

$0 < \varphi < 90^\circ$ bo'lsa, u holda $\operatorname{tg} \varphi > 0$ bo'ladi.

Agar φ uchun $90^\circ < \varphi < 180^\circ$ bo'lsa, u holda $\operatorname{tg} \varphi < 0$ bo'ladi.

Agar berilgan to'g'ri chiziqlar parallel bo'lsa $\varphi = 0$ bo'lib $\operatorname{tg} \varphi = 0$ bo'ladi. Bu holda formuladan $k_2 - k_1 = 0$, ya'ni $k_2 = k_1$ kelib chiqadi. Demak, **ikki to'g'ri chizikning parallellik sharti** $k_2 = k_1$.

Agar bu ikki to'g'ri chiziq o'zaro perpendikulyar bo'lsa, $\varphi = 90$ bo'lib $\varphi_2 = \varphi + \varphi_1 = 90 + \varphi_1$ bo'ladi. Bundan

$\operatorname{tg} \varphi_2 = \operatorname{tg}(90 + \varphi_1) = -\operatorname{ctg} \varphi_1 = -\frac{1}{\operatorname{tg} \varphi_1}$, ya'ni, $\operatorname{tg} \varphi_2 = -\frac{1}{\operatorname{tg} \varphi_1}$ kelib chiqadi. Demak,

ikki to'g'ri chiziqlarning perpendikulyarlik sharti

$$k_2 = -\frac{1}{k_1} \text{ yoki } k_1 k_2 = -1 \text{ bo'ladi.}$$

Misollar. 1. $3x+y-6=0$ va $x+2y+1=0$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchak topilsin.

Echish. To'g'ri chiziqlar tenglamalaridan $k_1 = -3$, $k_2 = -\frac{1}{2}$ larni topib, ikki to'g'ri chiziq orasidagi burchak formulasiga qo'yamiz:

$$\operatorname{tg} \varphi = \frac{-\frac{1}{2} + 3}{1 + \frac{1}{2} \cdot 3} = \frac{\frac{5}{2}}{\frac{5}{2}} = 1. \quad \text{Demak, } \operatorname{tg} \varphi = 1, \text{ ya'ni, } \varphi = 45^\circ.$$

2. $M(-3;1)$ nuqtadan o'tib $2x+u-3=0$ to'g'ri chiziqqa perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq tenglamasi topilsin.

Echish. Berilgan to'g'ri chiziq burchak koeffisientini aniqlaymiz: $k_1 = -2$. Unga perpendikulyar bo'lgan to'g'ri chiziq burchak koeffisienti $k_2 = \frac{1}{2}$ va tenglamasi $u = \frac{1}{2}x + b$ bo'ladi. Bu to'g'ri chiziq $M(-3;1)$ nuqtadan o'tadi. SHuning uchun $1 = \frac{1}{2} \cdot (-3) + b$ munosabatdan $b = \frac{5}{2}$ topiladi. Demak, javob $x - 2u + 5 = 0$ bo'ladi.

3. $M(2;-1)$ nuqtadan o'tib Ox o'qi bilan $\alpha = \frac{\pi}{3}$ burchak tashkil qiluvchi to'g'ri chiziq tenglamasini toping.

Echish. Masala shartiga ko'ra $k = \operatorname{tg} \alpha = \sqrt{3}$ bo'ladi va izlanayotgan to'g'ri chiziq tenglamasi $u = \sqrt{3}x + b$ ko'rinishda bo'lib u $M(2;-1)$ nuqtadan o'tadi. Bundan $b = -(1 + 2\sqrt{3})$ topiladi. Javob: $\sqrt{3}x - y - 1 - 2\sqrt{3} = 0$.

Nuqtadan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa.

Tenglamasi $Ax + Vy + S = 0$ bo'lgan to'g'ri chiziq va $M_0(x_0, y_0)$ nuqta berilgan bo'lsin. Bu holda $M_0(x_0, y_0)$ nuqtadan berilgan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa

$$d = \left| \frac{Ax_0 + By_0 + C}{\sqrt{A^2 + B^2}} \right| \quad \text{formula bilan hisoblanadi.}$$

Misollar. 1. $A(5;1)$ nuqtadan $5x + 12y - 50 = 0$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofa topilsin.

$$\textbf{Echish. } d = \left| \frac{Ax_0 + By_0 + C}{\sqrt{A^2 + B^2}} \right| = \left| \frac{5 \cdot 5 + 12 \cdot 1 - 50}{\sqrt{5^2 + 12^2}} \right| = \frac{13}{13} = 1.$$

2. Uchlari $A(1;2)$, $V(-2;1)$, $S(2;3)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchakning A uchidan tushirilgan balandlik uzunligini toping.

Echish. Avval VS tomon tenglamasini tuzamiz:

$$\frac{x+2}{2+2} = \frac{y-1}{3-1} \Rightarrow x-2u+4=0.$$

Endi A nuqtadan VS to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani hisoblaymiz:

$$d = \left| \frac{Ax_0 + By_0 + C}{\sqrt{A^2 + B^2}} \right| = \left| \frac{1 - 2 \cdot 2 + 4}{\sqrt{1^2 + (-2)^2}} \right| = \frac{1}{\sqrt{5}}.$$

3. Ushbu $3x+4u-5=0$ va $6x+8u-25=0$ tenglamalar bilan berilgan parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa topilsin.

Echish. Bu to'g'ri chiziqlar parallel bo'lgani uchun, biridan olingan ixtiyoriy nuqtadan ikkinchisigacha masofa biz topishimiz kerak bo'lgan masofa bo'ladi.

Agar $3x+4u-5=0$ to'g'ri chiziqda $x=-1$ desak, u holda $u=2$ kelib chiqadi. Demak, $A(-1;2)$ nuqtadan $6x+8u-25=0$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani topamiz:

$$d = \left| \frac{6 \cdot (-1) + 8 \cdot 2 - 25}{\sqrt{6^2 + 8^2}} \right| = \left| \frac{-6 + 16 - 25}{\sqrt{100}} \right| = \frac{15}{10} = 1,5$$

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Qanday tenglama to'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi deb ataladi?
2. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasidan burchak koeffisientli tenglamasini keltirib chiqaring.
3. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasidan kesmalar bo'yicha tenglamasini keltirib chiqaring.
4. $u=2x-3$ va $u=2x+10$ to'g'ri chiziqlar qanday joylashgan.
5. $y = \frac{1}{2}x+1$ va $u=-2x+3$ to'g'ri chiziqlar joylashgan.
6. Nuqtadan to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani topish formulasini yozish.
7. $A(-1,2)$ nuqtadan $x-3u=11$ to'g'ri chiziqqacha bo'lgan masofani toping.
8. Ikki to'g'ri chiziqning ustma-ust tushish shartini ifodalang.
9. Ikki to'g'ri chiziqning parallel shartini ayting.
10. Ikki to'g'ri chiziqning perpendikulyarlik shartini ifodalang.

Mustaqil echish uchun misollar

1. $y = 1/2 \cdot x + 4$ to'g'ri chiziq berilgan. Uning koordinat o'qlari bilan kesishish nuqtalarini toping.
2. Boshlang'ich ordinatasi $b = -3$ bo'lgan va $y = 2x + 3$ to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan to'g'ri chiziqni yasang va tenglamasini yozing.
3. $y = \sqrt{3}x - 2$ va $y = \frac{1}{\sqrt{3}}x + 3$ to'g'ri chiziqlar berilgan. Ularning abssissa o'qi bilan tashkil qiladigan burchaklarini toping.
4. $y = -2/5 \cdot x + 3$; $y = 3/7 \cdot x + 2/7$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni toping.
5. $6x + 8y + 5 = 0$; $2x - 4y - 3 = 0$ to'g'ri chiziqlar orasidagi burchakni toping.
6. 1) $3x - 15y + 16 = 0$, 2) $3x + 15y - 8 = 0$, 3) $6x - 30y + 13 = 0$,
4) $30x + 6y + 7 = 0$
to'g'ri chiziqlardan qaysilari perpendikulyar va qaysilari parallel.
7. Quyidagi to'g'ri chiziqlar orasidagi burchaklarni toping:

$$\begin{array}{ll}
 1) \quad y = 2/3 \cdot x - 7 & 2) \quad 2x - 4y + 9 = 0 \\
 \quad y = 5x + 9 & \quad 6x - 2y - 3 = 0 \\
 3) \quad y = 3/7 \cdot x - 2 & 4) \quad x/4 - y/5 = 1 \\
 \quad 7x + 3y + 5 = 0 & \quad x/2 + y/18 = 1
 \end{array}$$

8. Tomonlari $4x - 3y + 5 = 0$, $3x + 4y + 4 = 0$, $x - 7y + 18 = 0$ to'g'ri chiziqlarda yotgan uchburchakning ichki burchaklarini toping.

9. $A(4; 5)$ nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziqlar dastasining tenglamasini yozing va ulardan $2x - 3y + 6 = 0$ to'g'ri chiziqqa perpendikulyar va parallel bo'lganlarini ajrating.

10. Uchburchak tomonlari

$$7x - 6y + 9 = 0; \quad 5x + 2y - 25 = 0; \quad 3x + 10y + 29 = 0$$

tenglamalar bilan berilgan. Uning uchlarini va balandliklarining tenglamalarini toping.

11. Uchlari $P(-4; 0)$, $Q(0; 4)$ va $R(2; 2)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchak medianalarining tenglamalarini toping.

12. To'g'ri chiziqning koordinatlar boshidan uzoqligi 3, unga koordinatlar boshidan tushirilgan perpendikulyar OX o'qi bilan $\alpha = 45^\circ$ burchak hosil qilsa, to'g'ri chiziq tenglamasini yozing.

13. $x - y + 3 = 0$ to'g'ri chiziqqa koordinatlar boshidan tushirilgan perpendikulyarning uzunligini va uning OX o'qi bilan tashkil qilgan burchagini toping.

14. Uchlari $P(0; 5)$, $Q(-3; 1)$ va $R(-1; -2)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchakning R nuqtasidan o'tkazilgan balandligining uzunligini toping.

15. $5x - 12y - 26 = 0$, $5x - 12y - 65 = 0$ parallel to'g'ri chiziqlar orasidagi masofani toping.

16. Trapesiya asoslarining tenglamalari $3x - 4y - 15 = 0$, $3x - 4y - 35 = 0$ berilgan. Trapesiyaning balandligini toping.

17. Uchlari $A(-2; 0)$, $B(2; 4)$ va $C(4; 0)$ nuqtalarda bo'lgan uchburchak tomonlarining, AE medianasining, AD balandligining tenglamalarini hamda AE mediananing uzunligini toping.

8

mavzu

**Ikkinchi tartibli egri chiziqlar. Aylana, Ellips
va ularning xususiyatlari**

- 1. Aylana va uning tenglamasi.**
- 2. Ellips va uning kanonik tenglamasi.**


5.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. Aylana 2. Ellips tenglamasini keltirib chikarish 3. Ellips xossalarini ko'rsatish 4. Ellips grafigi
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. Aylana, ellips tenglamasini keltirib chikarish, ellips xossalarini ko'rsatish, ellips grafigini chizib ko'rsatish.	
Pedagogik vazifalar: • Aylana tenglamasi • Ellips tenglamasini keltirib chikarish • Ellips xossalarini ko'rsatish • Ellips grafigini chizish.	O'quv faoliyati natijalari: - Aylana tenglamasini va shaklini chizishni bilib oladi. - Ellips tenglamasini keltirib chikarishni o'rganadi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza , suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	1. Aylana, ellips tenglamasini keltirib chikarish 2. Ellips xossalarini ko'rsatish 3. Aylana, Ellips grafigini chizib ko'rsatvdi.	Tinglaydilar, YOzadilar. Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3- bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar extiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi" ga doir misollar tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Ilovalar



Aylana.

Markaz deb ataluvchi nuqtadan teng uzoqlikda yotuvchi nuqtalarning geometrik o'rniga **aylana** deyiladi.

Berilgan $S(a,b)$ nuqtadan R masofada turgan $M(x,y)$ nuqtani olaylik. Ikki nuqta orasidagi masofa formulasiga ko'ra

$R = \sqrt{(x-a)^2 + (y-b)^2}$ bo'ladi. Bundan, markazi $S(a,b)$ nuqtada radiusi R bo'lgan aylana tenglamasi $(x-a)^2 + (y-b)^2 = R^2$ kelib chiqadi. Agar $S(0,0)$ bo'lsa, $x^2 + y^2 = R^2$ bo'ladi.

Misollar. 1. Tenglamasi

$$2x^2 + 2y^2 - 8x + 5y - 4 = 0$$

bo'lgan aylananing markazi va radiusini toping.

Echish. Har bir o'zgaruvchi bo'yicha to'la kvadrat ajratamiz:

$$x^2 - 4x + y^2 + \frac{5}{2}y = 2, \quad (x-2)^2 + (y + \frac{5}{4})^2 = 2 + 4 + \frac{25}{16}, \quad (x-2)^2 + (y + \frac{5}{4})^2 = \frac{121}{16}.$$


Demak, $R = \frac{11}{4}$, $C(2; -\frac{5}{4})$.

2. Agar $A(-2;3)$ va $V(4;-8)$ bo'lsa, u holda diametri AV bo'lgan aylana tenglamasi topilsin.

Echish. Masala shartiga ko'ra, aylana markazi AV kesmaning o'rtasi, $S(1;-1)$ nuqta bo'ladi va radiusi ushbu munosabatdan topiladi:

$$2R = |AB| = \sqrt{(4+2)^2 + (-5-3)^2} = \sqrt{36 + 64} = 10.$$

Demak, $R=5$ va aylana tenglamasi $(x-1)^2 + (y+1)^2 = 25$ bo'ladi.




Ellips va uning tenglamasi.

Har bir nuqtasidan, fokuslar deb ataluvchi ikki nuqttagacha bo'lgan masofalari yig'indisi o'zgarmas miqdor bo'lgan nuqtalarning geometrik o'rni **ellips** deyiladi.

Xuddi aylanani kabi ellips tenglamasini keltirib chiqaramiz. Agar ellips fokuslari orasidagi masofani $2c$ desak, u holda $F_1(-c,0)$, $F_2(c,0)$ bo'ladi. Ta'rifdagi o'zgarmas masofani $2a$ deb belgilaymiz.

SHartga ko'ra, ellipsning ixtiyoriy $M(x,y)$ nuqtasi uchun $|F_1M| + |F_2M| = 2a$ bo'ladi. Demak,



$$\sqrt{(x+c)^2 + y^2} + \sqrt{(x-c)^2 + y^2} = 2a.$$

Buni soddalashtirib $(a^2 - c^2)x^2 + a^2y^2 = a^2(a^2 - c^2)$ munosabatni va bu erda $a^2 - c^2 = b^2$

belgilash kiritib $b^2x^2 + a^2y^2 = a^2b^2$ yoki $\frac{x^2}{a^2} + \frac{y^2}{b^2} = 1$ tenglamani hosil qilamiz. Bu ellipsning kanonik tenglamasi deyiladi.

Ellipsning Ox o'qidagi $2a$ masofasi uning katta o'qi, Oy o'qidagi $2b$ masofasi kichik o'qi deyiladi, a va b miqdorlar esa mos ravishda katta va kichik yarim o'qlar deyiladi.

Ellips fokuslari orasidagi masofaning katta o'qiga nisbati ellipsning **ekssentrisiteti** deyiladi va odatda ε harfi orqali belgilanadi.

Ellipsda quyidagi munosabatlar o'rinli:

$$\varepsilon = \frac{2c}{2a} = \frac{c}{a}, \quad c < a, \quad c^2 = a^2 - b^2, \quad \varepsilon = \frac{\sqrt{a^2 - b^2}}{a}$$

Ellipsning biror nuqtasidan fokuslarigacha bo'lgan masofa shu nuqtaning **radius vektori** deyiladi.

Demak, $r_1 = |F_1M| = \sqrt{(x+c)^2 + y^2}$, $r_2 = |F_2M| = \sqrt{(x-c)^2 + y^2}$ yoki $r_1 = a + \varepsilon x$, $r_2 = a - \varepsilon x$ ko'rinishda bo'ladi.

SHuningdek, $x = \pm \frac{a^2}{c}$ to'g'ri chiziqlar ellipsning direktrisalari deyiladi.

Ellipsning biror $M_1(x_1, y_1)$ nuqtasiga o'tkazilgan urinma tenglamasi

$\frac{xx_1}{a^2} + \frac{yy_1}{b^2} = 1$, normal tenglamasi $y - y_1 = \frac{a^2 y_1}{b^2 x_1} (x - x_1)$ ko'rinishlarda bo'ladi.

Misollar. 1. Agar $2a=6$, $2b=8$ bo'lsa, u holda ellips tenglamasini tuzing.

Echish. Masala shartiga ko'ra $c=3$, $b=4$. Demak, $a^2 = b^2 + c^2 = 25$, $a=5$.

Javob: $\frac{x^2}{25} + \frac{y^2}{16} = 1$.

2. Tenglamasi $3x^2+5y^2-16=0$ ko'rinishda bo'lgan ellips o'qlari va fokuslari topilsin.

Echish. Tenglamani $\frac{3x^2}{16} + \frac{5y^2}{16} = 1$ kabi yozib olamiz. SHuning uchun $a^2 = \frac{16}{3}$, $b^2 = \frac{16}{5}$, $c^2 = \frac{32}{15}$, $F_1(-\sqrt{\frac{32}{15}}; 0)$, $F_2(\sqrt{\frac{32}{15}}; 0)$ bo'ladi.

3-misol. $16x^2 + 25y^2 = 400$ ellipsning yarim o'qlarini, fokuslarini va eksentrisitetini toping.

Echish. Berilgan tenglamani 400 ga bo'lib,

$$\frac{x^2}{25} + \frac{y^2}{16} = 1$$

ko'rinishga keltiramiz. Bu tenglamadan $a^2 = 25$, $b^2 = 16$ bo'lib, yarim o'qlari mos ravishda $a = 5$, $b = 4$ bo'ladi. Ma'lumki, $b^2 = a^2 - c^2$, bo'lib,

$c^2 = 25 - 16 = 9$, $c = \pm 3$ bo'ladi. Demak, fokuslari $F_1(3,0)$ va $F_2(-3,0)$

nuqtalarda bo'ladi. Eksentrisiteti esa, $\varepsilon = \frac{c}{a} = \frac{3}{5}$.

9 mavzu

**Ikkinchi tartibli egri chiziqlar. Giperbola, parabola
va ularning xususiyatlari**

Ikkinchi tartibli egri chiziqlar.

**Giperbola,
Parabola
ularning xususiyatlari**


5.1. mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. 2. Giperbola, Parabola tenglamalari va ularning xususiyatlari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. Ellips tenglamasini keltirib chikarish. Ellips xossalarini kursatish. Ellips grafigi	
Pedagogik vazifalar: • Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. Giperbola tenglamasini keltirib chikarish Parabola tenglamasini keltirib chikarish Ularning xossalarini ko'rsatish, grafigi bilan tanishtirish.	O'quv faoliyati natijalari: 1. Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi. 2. Giperbola tenglamasini keltirib chikarish 3. Parabola tenglamasini keltirib chikarish 4. Ularning xossalarini ko'rsatish, grafigi bilan tanishtirish
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	1. Ikkinchi tartibli egri chiziq umumiy tenglamasi 2. Giperbola tenglamasini keltirib chikarish 3. Parabola tenglamasini keltirib chikarish 4. Ularning xossalarini ko'rsatish, grafigi bilan tanishtirish	Tinglaydilar, yozadilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3- bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar extiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Parabola" ga doir misollar tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Ilovalar



Ilovalar

Tekislikdagi Dekart koordinatalar sistemasida ixtiyoriy o'zgaruvchili 1 - tartibli tenglama quyidagi ko'rinishda berilar edi:

$$Ax + By + C = 0$$

A , B , C lar bir vaqtda nolga teng bula olmaydi. Bu tenglama to'g'ri chiziq tenglamasi deyiladi va aksincha ixtiyoriy to'g'ri chiziq ikki o'zgaruvchili birinchi tartibli tenglama yordamida beriladi. SHuning uchun to'g'ri chiziq birinchi tartibli chiziq deb ataladi.

Bundan buyon biz 2 o'zgaruvchili 2 - tartibli tenglama bilan shuullanamiz. Bu tenglamalar bilan berilgan chiziqlarni 2 - tartibli chiziqlar deb ataymiz.

4-misol.. $y^2 = 12x$ parabolaning fokusini va direktrisasining tenglamasini toping. $M(3; 6)$ nuqtadan fokusgacha bo'lgan masofani aniqlang.

Echish. Berilgan tenglamani (7) tenglama bilan solishtirib $2p = 12$, bundan $p = 6$, $p/2 = 3$. SHunday qilib, fokus $F(3; 0)$ nuqtada direktrisa tenglamasi $x = -3$ ekanligini topamiz. $M(3; 6)$ nuqta uchun $x = 3$, bo'lib, fakol radius $r = 3 + 3 = 6$, $r = 6$ bo'ladi.

1. Giperbola

Giperbola deb, har bir nuqtasidan berilgan ikki nuqttagacha (fokuslargacha) masofalarning ayirmasi o'zgarmas songa teng bo'lgan tekislik nuqtalarining o'rniga aytiladi.

Berilgan nuqtaning giperbolaning fokuslari, ular orasidagi masofa esa fokal masofa deb ataladi. Giperbola tenglamasini keltirib chiqaramiz. Buning uchun koordinatalar sistemasini shunday joylashtiramizki, absissa o'qi giperbolaning fokuslaridan o'tsin, $F_1 F_2$ fokal masofani ya'ni $F_1 F_2 = 2c$ deymiz. Ordinatalar o'qini F_1 va F_2 ni o'rtasidan perpendikulyar qilib o'tkazamiz. $F_1 M$ va $F_2 M$ lar orasidagi ayirma modulini $2a$ bilan belgilaymiz. U xolda giperbola quyidagi tenglamani qanoatlantiradi:

$$\left| \sqrt{(x+c)^2 + y^2} - \sqrt{(x-c)^2 + y^2} \right| = 2a$$

yoki

$$\left| \sqrt{(x+c)^2 + y^2} - \sqrt{(x-c)^2 + y^2} \right| = \pm 2a$$

Tenglamaning chap tomoni musbat bo'lsa (+), manfiy bo'lsa (-) olinadi.

$$x^2 + 2cx + c^2 + y^2 = 4a^2 \pm 4a\sqrt{(x-c)^2 + y^2} + (x-c)^2 + y^2$$

$$\frac{cx}{a} - a = \pm \sqrt{(x-c)^2 + y^2}$$

$$\frac{c^2 - a^2}{a^2} x^2 - y^2 = c^2 - a^2$$

taorifga ko'ra $a < c$, $c^2 - a^2 = b^2$ musbat bo'ladi.

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1 \quad (3)$$

giperbolaning kanonik tenglamasi.

MISOL: $M(8\sqrt{5}; 12)$ nuqtadan o'tuvchi giperbolani kanonik tenglamasi tuzilsin, agar fokal oralik 20 ga teng bo'lsa.

SHartga ko'ra $2s = 20$ $s = 10$

$$\frac{x^2}{a^2} - \frac{y^2}{b^2} = 1$$

$$\frac{(8\sqrt{5})^2}{a^2} - \frac{12^2}{b^2} = 1$$

$$\frac{320}{a^2} - \frac{144}{b^2} = 1$$

$$\begin{cases} \frac{320}{a^2} - \frac{144}{b^2} = 1 \\ b^2 = 100 - a^2 \end{cases}$$

$$a^2 = 64 \quad b^2 = 36$$

$$\frac{x^2}{64} - \frac{y^2}{36} = 1$$

MISOL: $21x^2 - 43y^2 = 903$ giperbola tenglamasi berilgan. Fokuslarning koordinatasi topilsin.

$$\frac{21x^2}{903} - \frac{43y^2}{903} = 1$$

$$\frac{x^2}{43} - \frac{y^2}{21} = 1$$

$$a^2 = 43$$

$$b^2 = 21$$

$$c^2 = a^2 + b^2$$

$$c^2 = 64$$

$$c = 8$$


Demak, $F_1 = (-8; 0)$ $F_2 = (8; 0)$ ekan.

/3/ tenglamadan maolunki, giperbola Ox , Oy o'qlariga nisbatan va koordinatalarning boshi O ga nisbatan simmetrikdir.

Agar $M_0(x_0; y_0)$ nuqta giperbolaga tegishli bo'lsa, u xolda $M_1(-x_0; y_0)$ $M_2(x_0; -y_0)$ $M_3(-x_0; -y_0)$ nuqtalarning ham giperbolaga tegishlidir.


Giperbola absissalar o'qini $A(-a; 0)$ $B(a; 0)$ nuqtada kesib o'tadi. A va B nuqtalar giperbolaning uchlari deyiladi. AB kesma giperbolaning xaqiqiy o'qi deyiladi. Uning uzunligi $2a$ ga teng.

$y = \frac{bx}{a}$ va $y = -\frac{bx}{a}$ to'g'ri chiziqlar giperbolaning asimptotalari deyiladi.



2 Parabola

Parabola deb, xar bir nuqtasidan berilgan bir nuqttagacha (fokusgacha) va berilgan bir to'g'ri chiziqqacha (direktrissagacha) masofalari o'zaro teng bo'lgan tekislik nuqtalarining geometrik o'rniga aytiladi.



Fokusdan direktrissagacha bo'lgan masofa fokal parametri deyiladi va p bilan belgilanadi. Koordinatalar sistemasini shunday joylashtiramizki, Ox uk F fokusdan o'tib direktrissaga perpendikulyar bo'lsin. Direktrissasi bo'lgan O o'q kesishish nuqtasini D bilan, koordinatalarning boshini O nuqta bilan belgilaymiz. DF ni o'rtasi O nuqta bo'ladi. U xolda $F\left(\frac{p}{2}; 0\right)$ bo'ladi. Direktrissa

esa $x = -\frac{p}{2}$ $x + \frac{p}{2} = 0$ tenglamaga ega bo'ladi. $M(x; y)$ parabolaning ixtiyoriy nuqtasi bo'lsin
Parabolaning taorifiga ko'ra


$$FM = MN \quad FM = \sqrt{\left(x - \frac{p}{2}\right)^2 + y^2}$$

Ikki nuqta orasidagi masofani topish formulasiga binoan

$$MN = \sqrt{\left(x + \frac{p}{2}\right)^2 + (y - y)^2} = \left|x + \frac{p}{2}\right|$$

$$\sqrt{\left(x - \frac{p}{2}\right)^2 + y^2} = \left|x + \frac{p}{2}\right|$$

$$x^2 - px + \frac{p^2}{4} + y^2 = x^2 + px + \frac{p^2}{4}$$



$$y^2 = 2px \quad (4)$$

parabolaning kanonik tenglamasi deyiladi.

MISOL: $y^2 = 3x$ parabola berilgan. Parabolaning shunday nuqtasini topaylikki, shu nuqtadan fokusgacha bo'lgan masofa 1 ga teng bo'lsin.

Echish:


SHartga ko'ra $2r = 3$ $\frac{p}{2} = \frac{3}{4}$ $F\left(\frac{3}{4}; 0\right)$ $M(x, y)$ noma'lum

$$\begin{cases} \left(x - \frac{3}{4}\right)^2 + y^2 = 1 \\ y^2 = 3x \end{cases} \quad \begin{cases} x^2 - \frac{3}{2}x + \frac{9}{16} + 3x = 1 \\ x^2 + \frac{3}{2}x + \frac{9}{16} = 1 \end{cases} \quad \begin{cases} \left(x + \frac{3}{4}\right)^2 = 1 \\ x + \frac{3}{4} = 1 \end{cases} \quad \begin{cases} x = \frac{1}{4} \end{cases}$$

$$y^2 = 3x = 3 \quad \frac{1}{4} = \frac{3}{4} \quad y = \pm \frac{\sqrt{3}}{2}$$

Tenglamadan ko'rinadiki parabola $x \geq 0$ soxada yotadi va Ox o'qiga nisbatan simmetrik $M(x_0, y_0)$ bo'lsa, u xolda $M_1(x_0, -y_0)$ bo'ladi.

Parabola koordinatalarning o'qini O(0; 0) nuqtada kesadi. Bu O(0; 0) nuqta parabolaning uchi deyiladi.



Parabolaning $x^2 = 2py$ tenglamasi ham mavjud.

Nazorat uchun savollar

- 1) Aylana tenglamasini yozing
- 2) Ellips tenglamasini yozing
- 3) Giperbola tenglamasini yozing
- 4) Parabola tenglamasini yozing
- 5) Ellipsning qanday qilib aylanaga keltirish mumkin?
- 6) Giperbolaning xaqiqiy o'qi nimadan iborat.

10 mavzu

To'plamlar va ular ustida amallar.

Sonli ketma -ketlik va unig limiti.

- *To'plamlarning turlari.*
- *Rasional sonlar to'plami.*
- *Sonli ketma -ketlik va uning limiti.*


5.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. To'plam tushunchasi. 2. Sonli to'plamlar. 3. Sonli ketma -ketlik va unig limiti.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Son, natural sonlar, butun sonlar, irrasional sonlar, ketma-ketlik, kesma, segment, interval, yarim ochik oralik, nuqta atrofi, absolyut kiymati, ordinatalar uki, koordinatalar boshi, absissalar o'qi tushunchalarini kiritish	
Pedagogik vazifalar: • Son, natural sonlar, butun sonlar, irrasional sonlar, ketma-ketlik, kesma, segment, interval, yarim ochik oralik, nuqta atrofi, absolyut kiymati, ordinatalar uki, koordinatalar boshi, absissalar o'qi tushunchalarini kiritish	O'quv faoliyati natijalari: Son, natural sonlar, butun sonlar, irrasional sonlar, ketma-ketlik, kesma, segment, interval, yarim ochik oralik, nuqta atrofi, absolyut kiymati, ordinatalar uki, koordinatalar boshi, absissalar o'qi tushunchalarini o'rganish.
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza, suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	1. Son, natural sonlar, butun sonlar. 2. irrasional sonlar, 3. ketma-ketlik, 4. kesma, segment, interval, yarim ochik oralik, n 5. nuqta atrofi, absolyut kiymati, 6. ordinatalar o'qi, koordinatalar boshi, 7. absissalar o'qi tushunchalarini beradi.	Tinglaydilar, yozadilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3- bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: " Funksiya grafigiga"ga doir misollar tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Ilovalar



SONLI KETMA-KETLIK VA UNING LIMITI.

REJA

1. Sonli ketma-ketlik.
2. Sonli ketma-ketlik limiti taorifi.
3. Limit xossalari, cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar.

Tayanch iboralar.

Sonli ketma-ketlik, sonli ketma-ketlik limiti, limit xossalari, cheksiz kichik va katta miqdorlar.

Agar biror sonlar to'plami har bir elementlarini nomerlash mumkin bo'lsa, bunday sonlar to'plami ketma-ketlik deb ataladi. Boshqacha aytganda natural sonlar to'plamida aniqlangan funksiya sonli ketma-ketlik deb ataladi.

Umumiy holda sonli ketma-ketlik quyidagicha belgilanadi:

$$a_1, a_2, \dots, a_n, \dots, \quad \text{ëku} \quad \{a_n\}_{n=1}^{\infty}.$$

Masalan.

$$\text{a)} 1, 2, 3, \dots, n, \dots$$

$$\text{d)} a_n = \frac{n^2}{n+1}$$

$$\text{b)} \frac{1}{1 \cdot 2}, \frac{1}{2 \cdot 3}, \dots, \frac{1}{n(n+1)}, \dots$$

$$\text{k)} a_n = \frac{2n}{3n-1}$$

$$\text{c)} 1, \frac{1}{2\sqrt{2}}, \frac{1}{3\sqrt{3}}, \dots, \frac{1}{n\sqrt{n}}, \dots$$

$$\text{e)} a_n = n^n$$

Agar biror o'zgaruvchi x miqdor o'zining butun o'zgaruvchi davomida eng kichik qiymati m dan kichik, eng katta qiymati M dan katta bo'la olmasi, ya'ni $m < x < M$ bo'lsa, bunday miqdor chegaralangan miqdor deyiladi.

Agar ketma-ketlik tashkil qiluvchi x miqdorning qiymatli absolyut qiymati jixatidan tinimsiz kamaya borsa, ya'ni oldindan berilgan ixtiyoriy kichik $\varepsilon > 0$ son uchun $|a_n| < \varepsilon$ bo'lsa, a_n miqdor cheksiz kichik miqdor deb ataladi.

Agar x o'zgaruvchi miqdorning qiymatlari tinimsiz orta borsa, ya'ni ixtiyoriy katta $M > 0$ son uchun ixtiyoriy x ning qiymatlari ketma-ketligida shunday element topilsaki, undan boshlab 'amma elementlar absolyut qiymatlari ji'atidan M dan katta bo'lsa, x ni cheksiz katta miqdor deb ataladi.

Taorif. Agar ixtiyoriy $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $N = N(\varepsilon)$ nomer topilsaki, $n > N(\varepsilon)$ qiymatlari uchun $|a_n - a| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, a soni $\{a_n\}$ sonli ketma-ketlikning limiti deyiladi va $\lim_{n \rightarrow \infty} a_n = a$ kabi belgilanadi. Limiti mavjud bo'lgan ketma-ketliklar yaqinlashuvchi deyiladi. Limitlar 'aqida bir necha teoremlar kiritamiz.

Teorema. Agar ketma-ketlik limiti mavjud bo'lsa u yagonadir.

Teorema. Agar ketma-ketlik chegaralangan va monoton bo'lsa, ketma-ketlik limiti mavjud bo'ladi.

Teorema. A soni $\{a_n\}$ sonli ketma-ketlikning limiti bo'lishi uchun zarur va etarli shart shunday α_n cheksiz kichik miqdor mavjud bo'lsaki, ketma-ket 'adlari $a_n + \alpha_n$ ko'rinishda ifodalash mumkin bo'lsa.

Bunday tashqari limitlar uchun quyidagi umumiy xossalarni keltirish mumkin:

$$a) \lim_{n \rightarrow \infty} c a_n = c \lim_{n \rightarrow \infty} a_n$$

$$b) \lim_{n \rightarrow \infty} (a_n \pm b_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} a_n \pm \lim_{n \rightarrow \infty} b_n$$

$$c) \lim_{n \rightarrow \infty} (a_n b_n) = \lim_{n \rightarrow \infty} a_n \lim_{n \rightarrow \infty} b_n$$

$$d) \lim_{n \rightarrow \infty} \frac{a_n}{b_n} = \frac{\lim_{n \rightarrow \infty} a_n}{\lim_{n \rightarrow \infty} b_n}, \lim_{n \rightarrow \infty} b_n \neq 0$$

$$e) \lim_{n \rightarrow \infty} \sqrt[k]{a_n} = \sqrt[k]{\lim_{n \rightarrow \infty} a_n}$$

Cheksiz kichik va cheksiz katta miqdorlar uchun ham limit xossalarni keltirish mumkin.

Agar α_n va β_n chekiz kichik miqdor bo'lsa, u holda $\frac{1}{\alpha_n}$ cheksiz katta miqdor bo'ladi va aksincha.

Quyidagi ketma-ketlikni ko'raylik: $b_n = \left(1 + \frac{1}{n}\right)^{n+1}$

Veyersstrass teoremasiga ko'ra har qanday monoton va chegaralangan ketma-ketlikning limiti mavjud. Shunga asosan

$$\frac{b_{n-1}}{b_n} = \frac{\left(1 + \frac{1}{n-1}\right)^n}{\left(1 + \frac{1}{n}\right)^{n+1}} = \frac{\left(\frac{n}{n-1}\right)^n}{\left(\frac{n+1}{n}\right)^{n+1}} = \frac{n^{2n+1}}{(n+1)^{n+1}(n-1)^n} = \frac{(n^2)^{n+1}}{(n^2-1)^{n+1}} \cdot \frac{n-1}{n} = \left(\frac{n^2}{n^2-1}\right)^{n+1} \cdot \frac{n-1}{n} =$$

$$= \left(1 + \frac{1}{n^2-1}\right)^{n+1} \cdot \frac{n-1}{n}$$

$$\left(1 + \frac{1}{n^2-1}\right)^{n+1} > 1 + (n+1) \frac{1}{n^2-1} = 1 + \frac{1}{n-1} = \frac{n}{n-1}$$

$$\frac{b_{n-1}}{b_n} > \frac{n}{n-1} \cdot \frac{n-1}{n}$$

Demak, ketma-ketlik chegaralangan. Bu ketma-ketlik limiti

$$e = \lim_{n \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{n}\right)^{n+1}$$

kabi belgilanib, Neper soni deyiladi, $e=2,7828182\dots$

NAZORAT UCHUN SAVOLLAR.

1. Qanday ketma-ketlikka sonli ketma-ketlik deb ataladi?
2. Sonli ketma-ketlik ta'rifini ayting.
3. Qanday ketma-ketliklar yuqoridan (quyidan) chegaralangan deb ataladi?
4. Qanday ketma-ketliklar monoton ketma-ketlik deb ataladi?
5. Ketma-ketlik limitining ta'rifini ayting.
6. Ketma-ketlik limitining asosiy xossalarini aytib bering.
7. $\lim_{n \rightarrow \infty} \frac{(n+2)^3 + (n-2)^3}{n^4 + 2n^2 - 1}$ limitni hisoblang.

11-,12- mavzular

Funksiya va uning berilish usullari.

Funksiya limiti va xossalari

- *Funksiya tushunchasi.*
- *Funksiya limiti va xossalari*


5.1. Ma'ruza mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 80 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Funksiya tushunchasi. 2. Sonli ketma -ketlik va unig limiti. 3. Funksiya limiti va xossalari
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Son, natural sonlar, butun sonlar, irrasional sonlar, kesma, segment, interval, yarim ochik oralik, nukta atrofi, absolyut kiymati, uzgaruvchi, argument funksiya, aniklanish soxasi, kiymatlar soxasi, jadval usuli, analitik usuli, grafik usuli, ordinatalar uki, koordinatalar boshi, absissalar o'qi, murakkab funksiya tushunchalarini kiritish	
Pedagogik vazifalar: • Uzgaruvchili mikdorlar, funksiya tushunchasi.. Funksiyani berilish usullar Juft va toq funksiyalar. Funksiyaning davriyligi bilan tanishtirish	O'quv faoliyati natijalari: uzgaruvchi, argument funksiya, aniklanish sohasi, qiymatlar sohasi, jadval usuli, analitik usuli, grafik usuli, ordinatalar uki, koordinatalar boshi, absissalar o'ki, murakkab funksiya tushunchalarini kiritish qura oladi
O'qitish uslubi va texnikasi	Ko'rgazmali ma'ruza , suhbat
O'qitish shakli	Ommaviy, jamoaviy
O'qitish vositalari	O'quv qo'llanma, proektor
O'qitish shart-sharoiti	O'TV bilan ishlashga moslashtirilgan Auditoriya

Ma'ruza mashg'ulotining texnologik xaritasi

Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
1-bosqich. Kirish (10 min.)	1.1. Mavzu, uning maqsadi, o'quv mashg'ulotidan kutilayotgan natijalar ma'lum qilinadi.	1.1. Eshitadi, yozib oladi.
2-bosqich Asosiy (60 min.)	1. Uzgaruvchili mikdorlar, funksiya tushunchasi. 2. Funksiyani berilish ususllari. 3. Juft va tok funksiyalar. 4. Funksiyaning davriyligi.	Tinglaydilar, yozadilar Talabalar berilgan savollarga javob beradilar.
3- bosqich YAkuniy (10 min.)	3.1. Mavzuga yakun yasaydi va talabalar e'tiborini asosiy masalalarga qaratadi. Faol ishtirok etgan talabalarni rag'batlantiradi. Mustaqil ish uchun vazifa: "Funksiya grafigiga"ga doir misollar tuzishni vazifa qilib beradi, baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi. 3.2. Topshiriqni yozib oladi.

Ilovalar



5. Funksiyaning limiti va uning asosiy xossalari

1. 1-ta'rif. $y = f(x)$ funksiya $x = a$ nuqtaning biror atrofida aniqlangan bo'lib, istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday $\delta > 0$ son mavjud bo'lsaki, $|x - a| < \delta$ tengsizlikni qanoatlantiradigan barcha $x \neq a$ nuqtalar uchun $|f(x) - A| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, A chekli son $y = f(x)$ funksiyaning $x = a$ nuqtadagi limiti deb ataladi va quyidagicha yoziladi

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = A \quad \text{ëku} \quad x \rightarrow a \quad \partial a \quad f(x) \rightarrow A \quad (1)$$

Funksiya limitining ta'rifidan kelib chiqadiki $x - a = \alpha$ cheksiz kichik bo'lganda $f(x) - A$ ham cheksiz kichik bo'ladi.

2-ta'rif. $y = f(x)$ funksiya, x ning etarlicha katta qiymatlarida aniqlangan bo'lib, istalgan $\varepsilon > 0$ son uchun shunday, $N > 0$ mavjud bo'lsaki, $|x| > N$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi barcha x lar uchun $|f(x) - A| < \varepsilon$ tengsizlik bajarilsa, o'zgarmas A son, $y = f(x)$ funksiyaning $x \rightarrow \infty$ dagi limiti deyiladi, va

$$\lim_{x \rightarrow \infty} f(x) = A \quad (2)$$

bilan belgilanadi.

1-ta'rifda faqat $x < a$ yoki $x > a$ bo'lgan qiymatlar qaralsa, funksiyaning **chap yoki o'nq limit** tushunchasi kelib chiqadi va

$$\lim_{x \rightarrow a-0} f(x), \quad \lim_{x \rightarrow a+0} f(x) \quad (3)$$

bilan belgilanadi.

3-ta'rif. Limiti $A = 0$ bo'lgan funksiya **cheksiz kichik funksiya (ch. kich. f.)** deyiladi.

4-ta'rif. Limiti $A = +\infty$ yoki $A = -\infty$ bo'lgan funksiyalarga **cheksiz katta funksiya (ch. kat. f.)** deyiladi va

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = +\infty \quad (4)$$

bilan belgilanadi.

Limitning ta'rifidan kelib chiqadiki $y = C$ o'zgarmas miqdorning limiti o'ziga teng.

Funksiya limitining asosiy xossalari:

1) **yig'indining limiti**. Chekli sondagi funksiyalar algebraik yig'indisining limiti, qo'shiluvchi funksiyalar limitlarining algebraik yig'indisiga teng, ya'ni $f_1(x)$ va $f_2(x)$ funksiylarning $x \rightarrow a$ dagi limitlari mavjud bo'lsa,

$$\lim_{x \rightarrow a} [f_1(x) \pm f_2(x)] = \lim_{x \rightarrow a} f_1(x) \pm \lim_{x \rightarrow a} f_2(x) \quad (5)$$

2) **chekli sondagi funksiyalar ko'paytmasining limiti** funksiylar limitlarining ko'paytmasiga teng, ya'ni

$$\lim_{x \rightarrow a} [f_1(x) \cdot f_2(x)] = \lim_{x \rightarrow a} f_1(x) \cdot \lim_{x \rightarrow a} f_2(x) \quad (6)$$

Natija: O'zgarmas ko'paytuvchini limit belgisidan tashqariga chiqarish mumkin, ya'ni,

$$\lim_{x \rightarrow a} [cf_1(x)] = c \lim_{x \rightarrow a} f_1(x) \quad (7)$$

3) **Ikkita funksiya nisbatining limiti**, maxrajning limiti noldan farqli bo'lsa, bu funksiyalar limitlarining nisbatiga teng, ya'ni $\lim_{x \rightarrow a} f_2(x) \neq 0$ bo'lsa,

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{f_1(x)}{f_2(x)} = \frac{\lim_{x \rightarrow a} f_1(x)}{\lim_{x \rightarrow a} f_2(x)} \quad (8)$$

bo'ladi.

Limitlarni hisoblashda quyidagi limitlardan foydalaniladi:

$$\lim_{x \rightarrow a} \frac{\sin x}{x} = 1; \quad (9)$$

$$\lim_{x \rightarrow \infty} \left(1 + \frac{1}{x}\right)^x = \lim_{x \rightarrow 0} (1 + \alpha)^{1/\alpha} = e, \quad e = 2,71828... \quad (10)$$

Bu limitlarga mos ravishda **birinchi** va **ikkinchi** ajoyib limitlar deyiladi.

6. Aniqmasliklar va ularni ochish

1. Aniqmasliklar. $\lim_{x \rightarrow a} \frac{f(x)}{\varphi(x)}$ limitni hisoblashda $f(x)$, $\varphi(x)$

funksiyalar ch.kich.f. lar bo'lsa, $f(x)/\varphi(x)$ nisbatga $x \rightarrow a$ da **(0/0)** **ko'rinishdagi aniqmaslik** deyiladi. $f(x)$, $\varphi(x)$ funksiyalar ch.kat.f. lar bo'lsa, $f(x)/\varphi(x)$ nisbatga $x \rightarrow a$ da (∞/∞) **ko'rinishdagi aniqmaslik** deyiladi. Xuddi shunga o'xshash $\infty - \infty$, $0 \cdot \infty$, 0^0 , ∞^0 aniqmasliklar

$$\lim_{x \rightarrow a} [f_1(x) - \varphi(x)], \quad \lim_{x \rightarrow a} [f(x) \cdot \varphi(x)] \quad \text{va} \quad \lim_{x \rightarrow a} [f(x)]^{\varphi(x)}$$

limitlarni hisoblashda kelib chiqadi. Bunday hollarda limitlarni hisoblashga **aniqmasliklarni ochish** deyiladi.

$(0/0)$ va (∞/∞) ko'rinishdagi aniqmasliklarni ochishda quyidagi xossadan foydalaniladi: $f(x)$ va $\varphi(x)$ funksiyalar $x = a$ nuqtaning biror atrofida hamma nuqtalarda o'zaro teng bo'lsa, ularning $x \rightarrow a$ dagi limiti ham teng bo'ladi.

Masalan, $f(x) = \frac{x^2 - 9}{2(x - 3)}$ va $\varphi(x) = \frac{x + 3}{2}$ funksiyalar x ning

$x = 3$ dan boshqa hamma qiymatlari uchun teng, chunki

$$\frac{x^2 - 9}{2(x - 3)} = \frac{(x - 3)(x + 3)}{2(x - 3)} = \frac{x + 3}{2}$$

YUqoridagi xossaga asosan,

$$\lim_{x \rightarrow a} f(x) = \lim_{x \rightarrow a} \varphi(x)$$

bo'ladi, ya'ni

$$\lim_{x \rightarrow 3} \frac{x^2 - 9}{2(x - 3)} = \lim_{x \rightarrow 3} \frac{x + 3}{2} = \frac{6}{2} = 3$$

natijaga ega bo'lamiz.

Funksiyalarning limitini topishga bir necha misollar qaraymiz.

1-misol. $\lim_{x \rightarrow \infty} \frac{5x + 6}{6x} = \frac{5}{6}$

ekanligini funksiya limitining ta'rifidan foydalanib isbotlang.

Echish. Buni isbotlash uchun $f(x) = (5x + 6)/6x$ o'zgaruvchi miqdor va $A = 5/6$ o'zgarmas miqdor orasidagi farq $x \rightarrow \infty$ da cheksiz kichik funksiya ekanligini ko'rsatish kifoya. Demak,

$$\frac{5x + 6}{6x} - \frac{5}{6} = \frac{5x + 6 - 5x}{6x} = \frac{6}{6x} = \frac{1}{x}$$

$1/x$ o'zgaruvchi miqdor $x \rightarrow \infty$ da cheksiz kichik funksiya iborat. SHunday qilib,

$$\lim_{x \rightarrow \infty} (5x + 6)/6x = 5/6.$$

2-misol. $\lim_{x \rightarrow 3} (2x^2 - 5x + 4) = 7$

ekanligini isbotlang hamda x va $(2x^2 - 5x + 4)$ larning qiymatlari jadvali bilan tushuntiring.

Echish. $x \rightarrow 3$ bo'lganligi uchun $x - 3 = \alpha$ cheksiz kichik miqdordir.

$x = 3 + \alpha$ ni $(2x^2 - 5x + 4) - 7$ ayirmaga qo'yib,

$$\begin{aligned} 2(3 + \alpha)^2 - 5(3 + \alpha) + 4 - 7 &= 2(9 + 6\alpha + \alpha^2) - 15 - 5\alpha + 4 - 7 = \\ &= 18 + 12\alpha + 2\alpha^2 - 15 - 5\alpha + 4 - 7 = 2\alpha^2 + 7\alpha \end{aligned}$$

natijaga ega bo'lamiz.

α cheksiz kichik funksiya bo'lganligi uchun $2\alpha^2 + 7\alpha$ ham cheksiz kichik bo'ladi. SHunday qilib, $\lim_{x \rightarrow 3} (2x^2 - 5x + 4) = 7$ isbot bo'ldi.

Endi yuqoridagi holatni x argument, $2x^2 - 5x + 4$ funksiya qiymatlari jadvali bilan ko'rsataylik. Ma'lumki $x \rightarrow 3$ intiladi.

x	2	2,5	2,8	2,9	2,99	2,999	$\rightarrow 3$
$2x^2 - 5x + 4$	2	4	5,68	6,32	6,9302	6,993002	$\rightarrow 7$

Bu jadvaldan ko'rinadiki, argumentning 3 ga yaqinlashib boruvchi qiymatlari uchun, funksiyaning mos qiymatlari 7 ga yaqinlashib boradi, ya'ni $x - 3$ cheksiz kichik miqdorga $2x^2 - 5x + 4 - 7$ ayirmaning ham cheksiz kichik miqdori to'g'ri keladi. YUqoridagi jadvalda $x < 3$ bo'lib, $x \rightarrow 3$ holni qaradik. $x > 3$ bo'lib, $x \rightarrow 3$ holni o'quvchiga mustaqil ko'rsatishni tavsiya qilamiz.

13 mavzu

Birinchi va ikkinchi ajoyib limitlar.
Funksiya uzluksizligi. Uzluksizlik xossalari.

- *Ajoyib limitlar.*
- *Funksiya uzluksizligi.*
- *Uzluksizlik xossalari.*

5.1. Mashg'ulotining o'qitish texnologiyasi

Mashg'ulot vaqti-2 soat	Talabalar soni: 20 – 30 gacha
Mashg'ulot shakli	Kirish-axborotli ma'ruza
Ma'ruza rejasi	1. Funksiya uzluksizligi. 2. Ajoyib limitlar. 3. Uzluksizlik xossalari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Funksiya uzluksizligi. Uzluksizligi. Uzluksizlik xossalari tushunchalarini kiritish	
